



Tadqiqot UZ



**ЎЗБЕКИСТОН  
ОЛИМЛАРИ ВА  
ЁШЛАРИНИНГ  
ИННОВАЦИОН  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАРИ  
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**2021**

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



31 DEKABR  
**№35**

**CONFERENCES.UZ**

**“ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА  
ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ”  
3-ҚИСМ**

---

**«ИННОВАЦИОННЫЕ НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЧЕНЫХ И МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА»  
ЧАСТЬ-3**

---

**«INNOVATIVE SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH OF SCIENTISTS AND YOUTH OF  
UZBEKISTAN»  
PART-3**

**ТОШКЕНТ-2021**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

“Ўзбекистон олимлари ва ёшларининг инновацион илмий-амалий тадқиқотлари” [Тошкент; 2021]

“Ўзбекистон олимлари ва ёшларининг инновацион илмий-амалий тадқиқотлари” мавзусидаги республика 35-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 46 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

#### **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

#### **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

#### **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

#### **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

#### **5. Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

#### **6. Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

#### **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)





### **8. Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

### **9. Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

### **10. Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

### **11. Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

### **12. Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

### **13. Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

### **14. Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **15. Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **16. Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

### **17. Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

### **18. Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

### **19. Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### **20. Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### **21. Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25. География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

---

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

<b>1. G‘aniyeva Nargiza Sodiqjanovna</b> ABU RAYHON BERUNIYNING “HINDISTON” ASARI VA UNING GLOBUSI.....	7
<b>2. Tosheva Farida Soliyevna</b> ABU ALI IBN SINONING PEDAGOGIK QARASHLARIDAN – ZAMONAVIY METODIK USULLARDA FOYDALANISH.....	9
<b>3. Xaydarova Nigora Onorbekovna</b> XORAZM VA UNING DORUL HIKMA VA MAORIFI.....	11
<b>4. Tayirova Dilnoza O‘ktamovna</b> QADIMGI RIMDA NOTIQLIK SAN’ATINING VUJUDGA KELISH TARIXI.....	13
<b>5. Xaitova Guli Ravshanbekovna</b> O‘RTA OSIYODA OTASHPARASTLIK VA ISLOM DINI.....	15
<b>6. Xalboyeva Fazilat Rustamovna</b> O‘ZBEKISTON XALQLARI TARIXINI O‘RGANISH – O‘ZLIKNI ANGLASHDIR.....	16
<b>7. Yuldashev Romon Madrimovich</b> MIRZO ULUG‘BEKNING TAXTGA KELISHI VA UNING PUL ISLOHOTI.....	17
<b>8. Фозилходжаева Мафтуна Боходир кизи, Ахмедов М.Б.</b> ИРАНСКАЯ ПОЛИТИКА НА БЛИЖНЕМ ВОСТОКЕ: ЭВОЛЮЦИЯ И ПОСЛЕДСТВИЯ .....	19
<b>9. Шомуратова Садоқат Норметовна</b> ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ МАНИХЕЙСТВА И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРЫ В СРЕДНЕЙ АЗИИ .....	23
<b>10. Eshanova Roza Srajatdinovna</b> TARIX DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL METODLAR .....	25
<b>11. Omonboy Miskinov Davlatboyevich, Atajanova Gulshoda Saburovna</b> TARIX VA TARBIYA DARSLARINI TASHKIL ETISHGA INNOVATSION YONDASHUV .....	27
<b>12. Alimova Madina Zokirjonovna</b> TURKISTONDAGI MUSTAMLAKACHILIKNI MADANIYATGA TA’SIRI.....	29
<b>13. Allaberganov Hamidbek</b> BUYUK IPAK YO‘LIDA SERVIS XIZMATLAR.....	31
<b>14. Atadjanova Saodat Egamovna</b> XIVA – SHARQ ME’MORCHILIGINING YUKSAK NAMUNASI.....	34
<b>15. Babayeva Intizor</b> XALQ AN’ANALARINING TARIXIY ILDIZLARI.....	36
<b>16. Gofurova Farida Toxir qizi</b> TARIX DARSLARINI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. O‘QUVCHILAR BILAN INDIVIDUAL SHUG‘ULLANISHNING AHAMIYATI.....	38
<b>17. Matyaqubov Yaxshimurod Sobiryozi o‘g‘li</b> TOXARISTON YABG‘ULIGINING BOSHQARUV MARKAZLARI.....	40
<b>18. O‘ktamova Shoxida</b> XOTIN-QIZLAR O‘RTASIDAGI HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINING TASHKILIY ASOSLARI.....	43



## ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

### ABU RAYHON BERUNIYNING “HINDISTON” ASARI VA UNING GLOBUSI

**G‘aniyeva Nargiza Sodiqjanovna**

Namangan viloyati Yangiqo‘rg‘on tumani 12-sonli  
umumiy o‘rta ta‘lim maktabi Tarix fani o‘qituvchisi  
Telefon: +998 93 267 07 09

**Annotatsiya:** Quyida berilgan ilmiy asosdagi maqolada – Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston” asari haqida qisqacha yondashishga harakat qilingan, uning asariga berilgan buyuk fikrlar bir guruh olimlarning qarashlari bilan yoritib berilgan. Ushbu maqolada Beruniy tomonidan yasalgan globus haqida ham ilmiy asoslarga tayanib yondashishga harakat qilingan, unda Beruniy Yerning sharsimonligiga qat‘iy ishonganligini o‘z asarlarida va U planetamizni aniq tasavvur etish bilan birga, uning tasvirini ham yaratmoqchi bo‘lganligini aytib o‘tganligi to‘g‘risida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Beruniy, globus, asar, Hindiston, yer, olim, kitob.

Buyuk mutafakkir Abu Rayhon Beruniyning yirik asarlaridan biri “Hindiston” kitobidir. Bu asarning to‘liq nomi “Hindlarning aqlga sig‘adigan va sig‘maydigan ta‘limotlarini aniqlash kitobi” bo‘lib bu nom ancha uzun va aytishga noqulay bo‘lganli sababli qisqacha “Hindistonga oid tahqiqatlar” yoki “Hindiston” deb qo‘ya qolingan. Beruniyning bu asari ustida 20 yil ilmiy tekshirish ishlari olib borgan Eduard Zaxau uning arabcha tanqidiy teksti bilan inglizcha tarjimasini 1888-yil Londonda nashr etdi. Shundan so‘ng Beruniyning bu sohadagi ajoyib ishi ko‘pchilik olimlarga ma‘lum bo‘lib ketdi. Zaxauning arabcha teksti Toshkentda rus va o‘zbek tiliga qilingan tarjimaga asos bo‘ldi. Zaxau hindshunoslikda Beruniyga teng keldigan biror olimning na undan oldin va na undan keyin bo‘lganligini bilmaymiz, degan edi<sup>1</sup>.

Yirik arabshunos V. R. Rozen esa olimning “Hindiston” asarini qadimgi va o‘rta asr G‘arb va Sharq adabiyotida misli ko‘rilmagan yodgorlik, deb baholaydi. Kal‘kutta universitetining professori S. K. Chatterji fikriga qaraganda, Beruniy hind avtorining tiliga xos originallikni shunday yahshi bilardiki, hatto bunday kishilarning o‘sha til egasi bo‘lmish hind xalqi ichidan chiqishi ham kamdan-kam uchraydigan voqea edi. Eramizning 1040-yillarida, bizga ma‘lum bo‘lishicha, madaniyat olamida hind, musulmon va ellin madaniy merosini bir xilda chuqur, har tomonlama bilgan faqatgina bir kishi bo‘lgan, u ham bo‘lsa, Beruniy edi, deb aytib o‘tgan edi.

Endi Beruniyning globusi haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, U qaysiki bir xalqlar quyoshning chiqishini ko‘rgan paytda boshqa xalqlar ayni vaqtda quyoshni o‘z tepalarida ko‘radilar, bu haqiqat, har yerning vaqti har xil. Buning sababi Yerning yumaloq bo‘lganidandir deb aytib o‘tadi. Agar Yer yumaloq bo‘lmaganda turlicha kenglikdagi joylar bilan o‘ralmagan bo‘lardi, yozda va qishda kun va tun har xil bo‘lmas edi, ular hozirgiday o‘zgarib turmas edilar” deb, o‘zining “Hindiston” asarida aytib o‘tadi. Yer umuman yumaloqdir, biroq ayrim joylari g‘adir-budir, chunki tog‘lari do‘ppayib chiqib turadi, botiqlari chuqur kirgan, shunday bo‘lsa-da uning shakli sharga o‘xshash, tog‘larning balandligi butun Yerga nisbatan juda kichikdir<sup>2</sup>. Diametri bir cho‘zim yoki ikki cho‘zim keladigan yumaloq narsani ko‘rganmisan, uning sirtida tariq donalari turgan bo‘lsa va tariqday-tariqday o‘yiq izlari bo‘lsa? Tog‘lar va botiqlar ham butun Yerga nisbatan xuddi shunday arzimas darajadadir. Agar Yerning shunday g‘adir-budurliklari bo‘lmaganda, hammayoqni suv bosib ketgan bo‘lar edi, hech nima ko‘rinmay qolar edi. Holbuki suvning ham yer singari og‘irligi bor...” deb, Beruniy “Qonuni Mas‘udiy” asarida takidlaydi. Beruniy planetamizni aniq tasavvur etish bilan birga, uning tasvirini ham yaratmoqchi bo‘lgan: “Men o‘tmishda Ptolemeyning “Jug‘rofiya” kitobida usulni Jayhoniyning “Yo‘llar kitobi”dagi va boshqalarning usullari bilan birlashtirmoqqa ko‘p tirishdim. Turli asarlardagi ma‘lumotlarni to‘pladim, noaniqliklarni aniqlab, bilimning shu

<sup>1</sup> Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. II жилд. –Т.: Фан, 1965. – Б. 8.

<sup>2</sup> Хасанов Х. Сайёх олимлар. –Т.: Ўзбекистон, 1981. –Б. 94.



sohasini mukammallashtirdim. Shuning uchun dastavval sayyohlardan hamda o'zi ko'rganlardan eshitganlarimga, masofa ma'lumotlari va joy hamda shaharlarning nomlarini aniqlashni boshladim. Ma'lumotlarning ishonchliligini tekshirdim. Bir shaxsning ma'lumotlarini boshqa ma'lumotlar bilan solishtirdim. Shu maqsadga erishish yo'lida na kuchimni, na pulimni ayadim. Joylar va shaharlar uchun diametri 10 cho'zim keladigan yarim kura ishladim. Unda masofalarga qarab uzunlik va kengliklarni belgilash mumkin edi. Ammo masofalar juda ko'pligidan va hisoblash uzoqligidan matematik hisoblarga vaqtim yetmasdi deb, o'zining “Geodeziya” asarida aytib o'tgan edi. Ammo Beruniy bu shaklni nimadan yasaganini aytmagan. Har holda uning globus yasaganligi aniq ma'lum. Globusning diametri nihoyatda katta bo'lgan; u aytgan “10 cho'zim” taxminan 5 metr keladi. Bu globus Xorazmda yasalgan.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki Beruniyning “Hindiston” bilan shug'ullanishi bejiz emas, sababi, Sharqdagi ko'p mutafakkirlar – matematik, astronom va xoh geograf bo'lsin, albatta, hind fani, madaniyati hamda tarixi bilan qiziqqan. Bunga sabab qadim zamonlardayoq hindlarda ilm-fan yuksalgan edi. Shu bilan birgalikda Beruniyning “Hindiston” asariga hamda o'ziga nisbatan olimlar tomonidan berilgan ta'riflar ham buning dalilidir. Globus haqida qisqacha xulosam shuki, bu Sharq olamidagi dastlabki globus bo'lishi bilan birga, eng birinchi relefli globus hisoblanadi. Umuman aytganda Beruniy kartografiya tarixida matematik geografiya prinsiplariga asosan yasalgan yer yuzidagi birinchi globusni yaratib, o'zidan kelajak avlod uchun o'chmas iz qoldirib ketdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. II жилд. –Т.: Фан, 1965. –269 б.
2. Hasanov F. Ma'naviyat yulduzlari. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2011. –368 b.
3. Хасанов Х. Сайёх олимлар. –Т. Ўзбекистон, 1981. –264 б.





**ABU ALI IBN SINONING PEDAGOGIK QARASHLARIDAN – ZAMONAVIY  
METODIK USULLARDA FOYDALANISH**

**Tosheva Farida Soliyevna**  
Buxoro viloyati Buxoro tumani  
48-sonli umumiy oʻrta taʼlim  
maktabining Tarix fani oʻqituvchisi  
Telefon: +998 99 071 51 33

**Annotatsiya:** Quyida berilgan ushbu ilmiy maqolada Abu Ali Ibn Sinoning qisqagina hayot yoʻli, inson aqli va bola tarbiyasi, ahloqiy qarashlar, taʼlim – tarbiyadagi tamoyillar, pedagog qanday boʻlishi kerakligi haqida yoʻl-yoʻriqlar hamda insonning shakllanishi haqida ilmiy maʼlumotlar berilgan.

**Kalit soʻzlar:** Ibn Sino, bola, tarbiya, aql, inson, bilim, pedagog, maktab.

Abu Ali Ibn Sino Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati oʻrta asr sharoitida dunyo madaniyatining oldingi qatoriga olib chiqqan buyuk mutafakkirlardan biri – Abu Ali ibn Sino boʻlib, u Gʻarbda Avitsenna nomi bilan mashhurdir<sup>1</sup>. Ibn Sino (asl ismi Husayn, otasining ismi Abdulloh) Buxoroning Afshona qishlogʻida, hijriy 370 (980)-yilning safar oyida, amaldor oilasida tugʻildi. 986-yilda Ibn Sino oilasi Buxoroga koʻchib keladi va shu vaqtdan boshlab yosh Husayn boshlangʻich maʼlumot olishga, ilm-fanni oʻrganishga kirishadi. Uning yoshligi, yigitlik chogʻlari Somoniylar hukmronligining soʻnggi yillariga, xususan, Nuh II ibn Mansur Somoniy hukmronligi davri (976–997) ga toʻgʻri keladi.

Inson aqli turli fanlarni oʻrganish yordamida boyiydi, rivoj topadi. Bunda, xususan, u mantiq ilmiga katta eʼtibor beradi. Aql har qanday bilishning va amaliy faoliyatning mezoni sifatida talqin etiladi. “(Aql) tarozisida oʻlchanmagan har qanday bilim, – deb yozadi Ibn Sino, – chin boʻlolmaydi, demak, u haqiqiy bilim emas”. Oʻrta asrda Yaqin va Oʻrta Sharq, jumladan, Markaziy Osiyo falsafasida aql nazariyasi juda muhim oʻrin egallaydi.

Abu Ali Ibn Sino ham bola tarbiyasi va tarbiya usullari haqida qimmatli fikrlarini bildirgan. Ibn Sino bolaning axloqiy tarbiyasi haqida bildirgan fikrlarida uy – roʻzgʻor tutish masalalari xususida ham soʻz yuritadi. Bolani tarbiyalash oila, ota – onaning asosiy maqsadi va vazifasidir. Oʻz kamchiliklarini tuzatishga qodir boʻlgan ota – ona tarbiyachi boʻlishi mumkin.

Ahloqiy tarbiyada eng muhim vositalar bolaning nafsoniyatiga, Gʻururiga tegmagan holda, yakkama-yakka suhbatda boʻlish, unga nasihat qilishdir. Ibn Sino bolada ahloqiy xususiyatlarni mehnat, jismoniy, aqliy tarbiya bilan uzviy birlikda shakllantirishni, uni inson qilib kamol toptirishda asosiy omil, deb biladi.

Abu Ali ibn Sino kamolotga erishishning birinchi mezoni sanalgan bilimlarga yetishishga daʼvat etgan. U bolalarni maktabda oʻqitish zarurligini qayd etar ekan, taʼlim – tarbiyada quyidagi tamoyillarga rioya etish zarurligini taʼkidlaydi:

- bolalarga bilim berishda birdaniga kitobga band kilib qoʻymaslik;
- taʼlimda yengildan ogʻirga borish orqali bilim berish;
- olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos boʻlishi;
- jamoa boʻlib maktabda oʻqitishga eʼtibor berish;
- bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- oʻqitishni jismoniy mashqlar bilan qoʻshib olib borish.

Ibn Sino oʻzining “Tadbiri manzil” asarining “Bolani maktabda oʻqitish va tarbiyalash” boʻlimida toʻxtalib, taʼlim va tarbiya jarayonini ochib beradi. Bolalarga bilim berish pedagogning asosiy burchidir. Shunga koʻra, Ibn Sino pedagog qanday boʻlishi kerakligi haqida fikr yuritir ekan, shunday yoʻl-yoʻriqlar beradi:

- bolalar bilan muomalada bosiq va jiddiy boʻlish;
- berilayotgan bilimni bolalar qanday oʻzlashtirib olayotganiga eʼtibor berish;
- taʼlimda turli usullardan foydalanish;
- fanga qiziqitira olish;
- berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olish;

<sup>1</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 4-том. –Т.: Ўзбекистон, 2004. –Б. 9.



- bilimlarni bolalarning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;
- har bir soʻzning bolalar hissiyotini uygʻotish darajasida boʻlishga erishish zarur.

Ibn Sino insonning shakllanishida uning atrofini oʻrab olgan ijtimoiy muhit alohida rol oʻynashini, ana shu muhit insonning atrof dunyoni bilishinagina emas, balki uning hulqida yaxshi yoki yomon jihatlarning tarkib topishiga ham taʼsir etishini, shuning uchun ham bolalarni tarbiyalashda extiyotkor boʻlish, uni yomon ijtimoiy muhitdan uzoqroq saqlash zarurligini oʻqtiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Ibn Sino inson kamolotida aqliy, axloqiy tarbiya bilan bir qatorda jismoniy tarbiyaning muhim ahamiyatini ham nazariy, ham amaliy jihatdan isbotlaydi va bolaga hali u tugʻilmasdan turib gʻamxoʻrlik qilish, goʻdaklik davridan boshlab tarbiyani boshlash zarurligini taʼkidlaydi. Ibn Sinoning taʼlim-tarbiyaviy qarashlarida insonning aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy rivojlanishi uning kamolga yetishida asosiy mezon sifatida talqin qilgan edi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Hasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika. Oʻquv qoʻllanma – T.: “Fan”, 2006.
2. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika. Oʻquv qoʻllanma. – Toshkent: Fan, 2004.
3. Ishmuhamedov R., Abduqarodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. Taʼlim muassasalari oʻqituvchilari uchun amaliy tavsiyalar. – T.: “Isteʼdod” jamgʻarmasi, 2009.
4. Toxtaxodjayeva M.X. va boshqalar. Pedagogika nazariyasi va tarixi 1-qism: Pedagogika nazariyasi. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007.
5. Zunnunov A. va boshqalar. Pedagogika tarixi. – T.: Sharq, 2000.
6. Xoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. –T.: Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.
7. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – T.: Ўзбекистон, 2004. –700 б.



## XORAZM VA UNING DORUL HIKMA VA MAORIFI

**Xaydarova Nigora Onorbekovna**

Namangan viloyati Yangiqo‘rg‘on tuman

59-sonli umumiy o‘rta ta‘lim

maktabining Tarix fani o‘qituvchisi

Telefon: +998 88 373 13 81

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Xorazmning jahon sivilizatsiyasidagi o‘rni, Xorazmning qadimgi tarixi va uning Akademiyasi haqida ma‘lumotlar berib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** Xorazm, Ma‘mun akademiyasi, Avesto, axtarvenik, Majlisi ulamo, Masolik al-mamolik, jahon, ilm-fan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev aytib o‘tganlaridek, Xorazm deganda, jahon ilm-fani, madaniyat va san‘ati taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan, o‘zbek davlatchiligining tamal toshi qo‘yilgan betakror bir o‘lka ko‘z oldimizga keladi. Insoniyat tarixidagi eng qadimiy yozma manbalardan biri bo‘lgan “Avesto” kitobining aynan shu zaminda paydo bo‘lgani Xorazm yurtining tarixi qanday teran ekanidan dalolat beradi.

Ilk o‘rta asrlarda aynan shu yerda asos solingan Ma‘mun akademiyasi ( Dorul hikma va maorif ) butun Sharq va G‘arb olamida qanday yuksak shuhrat qozongani barchamizga yaxshi ma‘lum.

Jo‘shqin Amudaryodan suv ichib, muqaddas va tabarruk Xorazm tuprog‘idan unib-o‘sgan, xalqimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Muso Xorazmiy, Mahmud Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Nosiriddin Rabg‘uziy, Sulaymon Boqirg‘oniy, Sakkoliy, Munis, Feruz, Ogahiy, Bayoniy va boshqa ko‘plab allomalar, shoir va mutafakkirlarning nomlari jahon sivilizatsiyasi tarixiga haqli ravishda oltin harflar bilan bitilgan.

Xorazm hududida Jonbos qal‘a, Gyovur qal‘a, Qir qal‘a, Qo‘yqirilgan qal‘a, Tuproq qal‘a, Ayoq qal‘a va boshqa shu kabi qadimiy shahar xarobalarining mavjudligi qadimgi Xorazmdagi urbanizatsiya va u bilan bog‘liq ushbu zamindagi fan va madaniyatning yuksak darajada bo‘lganidan dalolat beradi. Bu yerlardan yuqori bosqichdagi shaharsozlik madaniyatidan va ilm-fan izlaridan ma‘lumot beruvchi ashyoviy dalillar topilgan. Jumladan, Qo‘yqirilgan qal‘adan topilgan astronomik kuzatishga moslashtirilgan qurilma va uskunalarining qismlari bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Islomgacha Xorazmda astronomiya ilmining yaxshi rivojlanganligi haqida Beruniy ham dalillar keltiradi. Olim u paytlar xorazmliklar astronomiyani “axtarvenik” deganlari va ularning astronomik bilimlari arablaridan yuqori va aniq bo‘lganini o‘z asarida bayon etadi<sup>1</sup>.

Xorazmliklar oromiy alifbosiga asoslangan o‘z yozuvlariga ega bo‘lganlar. Bu yozuvning miloddan avvalgi IV asrga taalluqli namunalari saqlangan. Xorazmni qadimdan shohlar boshqargan va ular o‘z nomlari bilan tanga pullar zarb qilganlar. Bunday pullarning miloddan avvalgi II asrdan boshlab zarb qilingan namunalari mavjud. Xorazmliklarning tabiatan ilmga o‘chligini tadqiqotchilar o‘rta asrlardayoq kuzatganlar. Chunonchi, X asrning birinchi choragida Xorazmda bo‘lgan mashhur sayyoh Istaxriy “Masolik al-mamolik” nomli asarida boshqa mintaqalar qatorida Xorazmni ham ta‘riflab, xorazmliklarning ilmga o‘chliklarini ta‘kidlab: “Hozir Bag‘dodda biror olim yoki faqih yo‘qki, uning xorazmlik shogirdi bo‘lmasin”, degan so‘zlarni yozadi. Xorazm Ma‘mun akademiyasida faoliyat yuritgan buyuk qomusiy olimlar: Abu Nasr Mansur ibn Ali ibn Iroq al-Ja‘diy, Abulxayr ibn Hammor, Abu Saxl Iso Yahyo al-Masihiy al-Jurjoniy, Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy, Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn Sino, Abu Ahmad ibn Muhammad ibn Ya‘qub ibn Miskavayh, Abu Mansur Abdulmalik ibn Muhammad ibn Ismoil as-Saolibiy va boshqalar o‘z asarlari bilan Xorazm Ma‘mun akademiyasidagi ilmlar rivojiga ulkan hissa qo‘shdilar va shu bilan islom mamlakatlaridagi ilmlarning keying rivojiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdilar.

Bundan ming yil muqaddam “Majlisi ulamo” nomi bilan mashhur bo‘lgan, XX asr olimlari uni akademiya deb atagan bu ilmiy muassasa o‘zigacha bo‘lgan va necha-necha asrlar davomida to‘plagan tajribalar, ilm-fan yutuqlari, donishmand halqimiz ichidan yetishib chiqqan ko‘plab

<sup>1</sup> Хоразм Маъмур академияси. –Т.: Шарқ, 2006. – Б. 22.



zabardast olimlar mehnati natijasi ekanligi shubhasiz. Unda ilm-fanning o'sha davrdagi barcha sohaları bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan, hind, yunon olimlarining muhim ilmiy asarlari arab tiliga tarjima qilingan, ularga sharhlar yozilgan. Bu ilmiy muassasa mamlakatimizda ilm-fanning keyingi taraqqiyotida katta rol o'ynadi. Chindan ham Xorazm Ma'mun akademiyasi misolida o'zbek ilm-fani, madaniyati, adabiyoti yutuqlari jahon tamadduni xazinasini boyitib, butun insoniyat manfaatlariga xizmat qilib keldi. Xorazm Ma'mun akademiyasi olimlari o'zlariga qadar yaratilib, tarix to'zonlarida ko'milgan ilmiy yutuqlarni ijodiy o'zlashtirib, tanqidiy o'rganib, ularga yangi hayot ato etdilar hamda yanada rivojlantirib, yuqori bosqichga ko'tarib, G'arbga – Yevropaga uzatdilar.

Xulosa shuki, Xorazm Ma'mun akademiyasi olimlari Sharq va G'arb o'rtasida o'ziga xos ko'prik, umumjahon tamadduni zanjirida muhim halqa vazifasini o'taganlar. Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sinolar rahbarlik qilgan ushbu ilmiy muassasa 1017-yilgacha faoliyat olib borgan bo'lsa-da, leki u jahon ilmiy tafakkuri, madaniy va ma'naviy taraqqiyotning Benazir hodisasi sifatida tarixda chuqur iz qoldirdi. Bu aytilganlar Xorazm Ma'mun akademiyasining jahon ilm-fani tarixida tutgan yuksak o'rnidan dalolat beradi. Shu sababli ham 1997-yilda Xorazm Ma'mun akademiyasining qayta tiklanishi fandagi vorisli halqasida muhim voqea bo'ldi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O'zbekiston, 2017. –484 b.
2. Хоразм Маъмун академияси. –Т.: Шарқ, 2006. – 168 б.





## QADIMGI RIMDA NOTIQLIK SAN'ATINING VUJUDGA KELISH TARIXI

**Tayirova Dilnoza O'ktamovna**

Xorazm viloyati Yangibozor tumani  
7-son maktabning tarix fani o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada notiqlik san'atining vujudga kelishi hamda rivojlanishi haqida ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari nutq madaniyatini qanday rivojlantirish va amalda qo'llash haqida takliflar va notiqlik sanati bilan shug'ullangan allomalarning qilgan ishlari keltirilgan.

**Kalit so'zlar.** Rim, notiqlik, notiqlik san'ati, davlat, tarix, ritorika, poetika, meros, ibodatxona, tinglovchi, madaniyat.

Nutq madaniyati va notiqlik san'ati o'zaro chambarchas bog'liq tushunchalardir. Notiqlik san'ati alohida mahorat va qobiliyat talab etadi. Har qanday madaniy nutq egasi mohir notiq bo'la olmaydi. Shu sababli xalq orasida so'zga chechan, so'zga usta, so'zamol, gapga usta, chiroyli gapiradi iboralari ishlatiladi.

Notiqlik – san'atning eng qadimgi turlaridan biridir. “Tinglovchilarga biror narsa- hodisani tushuntirish, isbot etish yoki ularning hissiyotiga, tushunchasiga ta'sir qilish niyatida so'zlangan nutq notiqlik faoliyatiga kiradi. Bu hodisani san'at darajasiga ko'tara olgan har bir shaxs notiqdir”.

Notiqlik san'ati dastlab Misr, Ossuriya, Vavilon, Hindistonda paydo bo'lgan. Eramizdan avvalgi V asr boshlarida Yunonistonda shakllangan. Yunonistonda demokratiya tuzumining o'rnatilishi natijasida davlat ishlarida, xalq majlislarida, senat kengashlarida, sud ishlari va yig'ilishlarida respublikaning har bir ozod kishisi erkin nutq so'zlash huquqiga ega bo'lgan. Davlatni boshqarishda qatnashishni xohlagan har bir shaxs chiroyli so'zlash san'atini egallashga majbur bo'lgan va bu narsa ehtiyojga aylangan.

Mashhur notiq Sitseron: “Tarixda yo yaxshi harbiy sarkarda, yo yaxshi notiq bo'lish kerak”, degan edi. Bunda notiqlik san'ati sarkardalik san'atiga tenglashtiriladi. Plutarx ham notiqlikning nihoyat darajada og'ir, sermashaqqatliligini tan olib, bu san'atni hayotiy zaruriyat deb hisoblaydi.

Sud ishlarida o'rnatilgan tartib ham bu san'atning yuksalishida katta turtki bo'ldi. Chunki sud jarayonida javobgar o'ziga qo'yilayotgan aybning asossizligini isbotlab gapirishi, da'vogar esa o'z fikrida qattiq turishi, uni qoralashi shart edi. Ammo hamma ham chiroyli nutq so'zlash qobiliyatiga ega bo'lmaganligi sababli, nutq matnlarini yozib beradigan bilimdon kishilar – “logograflar” ga ehtiyoj tug'ildi. Oradan biroz vaqt o'tib, tantanali nutq – epideytik nutq uslubi paydo bo'ldi. Logograflar bunday nutq matnlarini tayyorlash uchun o'zidan oldin o'tgan salafining merosiga va xalq og'zaki ijodiga murojaat qila boshladilar. Notiqlik san'ati shu tariqa asta-sekin shakllanib, badiiy adabiyotning ravnaqida katta vazifani bajardi, tragediya, komediya, roman janrlarining paydo bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

“Bulardan tashqari, notiqlik san'atining rivoji adabiy tilning shakllanishiga, notiqlik san'ati nazariyasidan iborat bo'lgan “Ritorika” ilmining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Rimdagi barcha shoirlar va notiqar shu maktabdan, ya'ni ritorika maktabidan ta'lim olganlar”. Notiqar tomonidan yaratilgan matnlar nasriy va poetik ijod namunasi bo'lib, Aristotel, Demosfen, Sitseron kabi ijodkor notiqarning nomi jahonga mashhur bo'lgan.

Aristotel “Poetika” nomli mashhur asaridan so'ng, 330-yilda Afinada “Ritorika” kitobini yozadi. Anaksemen “Ritorika” nomli qo'llanma, Lampsak ham shu nomdagi chiroyli so'zlash nazariyasi bo'yicha ilmiy mulohazalardan iborat asar yozgan edi. Aristotel esa “Ritorika” asarini uch kitobdan iborat qilib yaratadi. Chiroyli so'zlash, ishontirish metodlari haqidagi fikr-mulohazalar birinchi va ikkinchi kitobda bayon etilgan bo'lsa, uchinchi kitobda nutq mantiqiga katta e'tibor beriladi.

Olimning fikricha, notiq tilidagi turli “qorishmalar” ya'ni so'zlarning noto'g'ri va noo'rin talaffuz qilinishi, jumalarning mantiqan har xil tuzilishi so'zlovchining katta xatosidir. Bunda har bir jumla asosiy fikrni ifoda etishga qaratilishi, ravon va tinglovchi tushunadigan darajada sodda bo'lishi talab etiladi. Olim notiqning hissiyot bilan so'zlashi, mulohaza yuritayotgan fikrining tinglovchi qalbiga tez yetishida muhim omil bo'lishini alohida uqtiradi. Aristotel notiqning jamoani o'ziga jalb etishi uchun hazil-mutoyiba so'zlar bilan lirik chekinish qilib tinglovchilarni hayajonlantira bilishi zarurligini, agar turli ko'rgazmali qurollardan foydalansa, badiiy vositalardan epitet, chog'ishtirish, metaforalarni qo'llasa, nutqning ta'sirchanligi yanada oshishini, ammo



keltirilgan misollar ko'payib ketib, tinglovchini zeriktirib qo'yimasligi kerakligini ham ta'kidlaydi.

Aristotel notiqlik san'atini egallashni besh qismga bo'lib o'rgatadi:

1. Materialni kashf etish (har tomonlama tayyorlash).
2. Materialni joylashtirish shakli (rejasi).
3. Materialni eslab qolish (o'zlashtirish).
4. Materialni so'z yordamida to'g'ri aks ettirish.
5. Materialni to'g'ri talaffuz etish.

Eramizdan avvalgi 384 - yilda Afinada dunyoga kelgan buyuk notiq Demosfen o'z umrini Vatanining gullab-yashnashiga bag'ishlagan ulug' davlat arbobi edi. Otasining ismi ham Demosfen bo'lib, qurol-yaroq ustaxonasining egasi edi. Bo'lajak notiq 5 yoshga to'lganida otasi vafot etadi. Demosfen va singlisiga otasidan katta meros qoladi. Ammo ular kichkina bo'lganligi sababli meros va bolalar tarbiyasi tog'asiga topshiriladi. Barcha boyliklarni qo'lga kiritgan tog'asi Demosfen tarbiyasi bilan qiziqmaganligi uchun u nimjon bo'lib o'sadi. Bo'lajak notiq voyaga yetgach merosni tog'asidan talab qiladi. Ammo tog'asi unga me'rosni to'liq qaytarib bermaydi. Merosni tog'asidan to'liq ololmagan Demosfen uni sud orqali undirib olishga qaror qiladi. Sud muvaffaqiyat qozonish uchun Afina davlati qonunlarini, ravon so'zlash, davosining to'g'riligiga kishilarni ishontirish uchun notiqlik san'tini o'rganadi. Zamonasining meros ishlari bo'yicha mashhur advokati bo'lgan Isey maktabida 4 yil ta'lim oladi. Eramizdan oldingi V asrda yashagan, Pelopan urushida ishtirok etgan va uning tarixini yozgan Afina tarixchisi Fukididning, faylasuf Platonning asarlarini puxta o'rganadi. Fukidid asarlarini 8 marta qayta ko'chirib yodlab oladi. O'qishni tugatgach, vasiylari bilan sudlashadi va sud 5 yil davom etadi. Dastlab bo'lajak notiq muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Chunki uning tovushi juda past bo'lib, bir oz duduqlanar, “r” harfini talaffuz etolmas, mujmal gapirar edi. Avval boshqalarga sudda so'zlanadigan nutqning matnini yozib beradi. So'ng o'z nutqi ustida tinimsiz ishlaydi. Yelkasini qimirlatib turish odati bo'lib, ko'pchilik orasida o'zini to'g'ri tuta bilmas edi. Demosfen bu kamchiliklarni astoydil tugatish uchun ter to'kib ishlaydi. Birinchi, ikkinchi nutqi ayanchli holda tugaganligi sababli uzoq muddatli tinimsiz mashq qiladi. Mana shu mehnatlari samarasida mashhur notiq bo'lib yetishadi. Lekin hech qachon tayyorgarliksiz nutq so'zlamaydi, oldindan yozib qo'yilgan matnni yodlab olar, har bir so'z ustida puxta o'ylar, jumalarni aniq va chiroyli tuzishga harakat qilar edi. U hech vaqt bo'lmag'ur safsatalarni yoqtirmas, xotirjamlik bilan tinglovchilarning fikrini o'ziga tortar edi. 30 yoshli Demosfen davlat ishlarida ham faol qatnashadi. Vatanining dushmani – makedoniyalik podsho Filippga qarata nutq so'zlaydi. Afina Makedoniya rahbarligiga o'tkach uning dushmanlari bosh ko'taradi. Xalq partiyasi Demosfenning vatanparvarligini qadrlab uni “Oltin gulchambar” bilan taqdirlashga tavsiya etgan edi. Bu qarorga Makedoniya tarafdorlari qarshi chiqadi. Mashhur notiq Esxil majlis qarori ustidan sudga ariza yozadi va Demosfenni qoralab so'zga chiqadi. “Gulchambar”ni himoya qilish maqsadida so'z olgan Demosfen Vatanining gullab-yashnashi uchun tinmay kurashganini, Esxilning sotqinligini yorqin nutqida obrazli tarzda tasvirlab beradi. Sud hukmiga ko'ra Esxilga katta miqdorda jarima solinib, Afinadan badarg'a qilinadi. Biroq Makedoniya bilan Afinada o'rtasida boshlangan urushda afinaliklar mag'lub bo'ladi. Demosfen sirdan o'limdan mahkum etiladi. U Kalavri oroliga qochib borib, Poseydon ibodatxonasiga yashirinadi. Dushmanlari unga bo'lmag'ur va'dalar berib Antipatra huzuriga olib bormoqchi bo'ladi. Bu yovuz niyatni fahmlagan notiq zahar ichib (uyiga xat yozish bahonasida, ibodatxonaning ichkarisiga kirib) eramizdan oldingi 322 - yil dunyodan o'tadi.

#### **Foydalanilgan Adabiyotlar**

1. Ahmedov A. Notiqlik san'ati. T., 1967.
2. Inomxo'jayev S. O'tmish Sharq notiqligi. T., 1972.
3. Oripov K., Obidova M. Ifodali o'qish. T., 1991.
4. O'rinboyev B, Soliyev A. Notiqlik mahorati. T., 1984.
5. Nusratullo Atoulllo o'g'li Jumaxo'ja. Istiqol va ona tilimiz. T., 1998.



## O'RTA OSIYODA OTASHPARASTLIK VA ISLOM DINI

**Xaitova Guli Ravshanbekovna**  
Xorazm viloyati Xonqa tumani  
33-son umumta'lim maktabning  
tarix fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyo xalqlarining diniy e'tiqodlari va Islom dinining O'rta Osiyoga kirib kelishi haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** islom dini, otashparastlik, Muqanna, “Avesto”, Qutayba ibn Muslim, din, e'tiqod, zardushtiylik.

Tarixdan bizga ma'lumki, VII asr o'rtalaridan O'rta Osiyoga arablar bosqini boshlandi. Arablar dastlab, Movarounnahrni bosib olish uchun emas, balki, Islom dinini yoyish, uni targ'ib qilish, mahalliy xalq orasida bu dinni singdirishga alohida ahamiyat berdilar. Shu boisdan ular shu davrgacha O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan dinlarga qarshi qattiq kurash olib boradilar. Xususan, Islomgacha bo'lgan davrda O'rta Osiyo xalqlari turli dinlarga e'tiqod qilganlar.

VI – VII asrlarda O'rta Osiyoda otashparastlik (zardushtiylik), nasroniylik, moniylik, qam (shomoniylilik) kabi bir necha mahalliy dinlar mavjud bo'lgan. Aholining ko'pchiligi esa otashparastlik (zardushtiylik) diniga e'tiqod qilgan. Masalan, tarixiy shaxs bo'lgan – Muqanna (niqobdor) o'z e'tiqodi – otashparastlikka umrining oxirigacha sodiq qoladi. Islom dinini hech qachon qabul qilmagan. Istilochilarga taslim bo'lishni istamagan Muqanna o'zini yonib turgan tandirga tashlab halok bo'lgan.

Bundan tashqari, Xorazm, Buxoro, Samarqand, Farg'ona va unga tutash hududlarda ham aholi, asosan, olovga sig'inar edi. Otashparastlikning (zardushtiylikning) muqaddas kitobi “Avesto”ni biluvchilar – koinlar edi. Ular ona tilimizda “O't og'a” – otashparastlar ibodatxonasida hamisha yonib turuvchi olovning o'chib qolmasligi uchun mas'ul shaxs bo'lgan. Keyinchalik bu atama o't og'asi shaklida saqlanib, hurmatli kishi, jo'raboshi ma'nolarida qo'llanib kelinadi.

Otashparastlik (zardushtiylik)ka oid urf – odatlardan:

- 1) To'y – marosimlarda ba'zan uchrab turadigan kelin – kuyovlarni gulxan atrofida aylantirish;
- 2) Marhum va marhumaning joni uzilgan xonalarda 40 kun davomida tunlari muttasil chiroq yoqib qo'yish;
- 3) Vaqti – vaqti bilan mozarboshilarida yoki aziz – avliyolarning sag'analari oldida sham yoqish kabilar saqlanib qolgan.

Shuning uchun otashparastlar Islom dinini darhol qabul qilmaganlar. Bu borada, Xurosonga noib qilib tayinlangan Qutayba ibn Muslim targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish uchun tezlik bilan harakatni boshlab yuboradi. Masalan, Buxoro shahrining markazida joylashgan otashparastlar ibodatxonasini Jome' masjidiga aylantirib, so'g'diy yozuvda bitilgan asarlarni yoqib yuborgan. Mahalliy aholini Islom diniga kiritishda masjidga kelib ibodat qiluvchilar uchun hatto 2 dirhamdan pul hadya etishni joriy etdi. Qutaybaning bunday harakatlari keyinchalik turli noroziliklarga sabab bo'lgan. Natijada, xalifaga qarshi isyon ko'targani uchun 715-yilda Farg'onada arab askarlari tomonidan o'ldiriladi. Uning qabri hozirgi kunda Andijon viloyatining Jalaquduq tumanida joylashgan.

Arablar tomonidan Movarounnahrning bosib olinishi natijasida mahalliy aholining urf – odati, diniy e'tiqodi, madaniyati ham o'zgardi. Arab yozuvi joriy etildi. Tarixiy atama bo'lgan “Movarounnahr” atamasi ham arablar davrida paydo bo'ldi. Ular Amudaryodan shimolda joylashgan boy viloyatlarni Movarounnahr – “Daryoning narigi tomoni” deb ataganlar. Hozirgi kunda Movarounnahr atamasi Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi hududlarga nisbatan ishlatiladi. Ya'ni ikki daryo oralig'i demakdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqahhor Ibragimov: “Bizkim, o'zbeklar...”
2. Abdulahad Muhammadjonov: “O'zbekiston tarixi” 7 – sinf uchun darslik.
3. www.tadqiqot.uz



## О‘ЗБЕКИСТОН ХАЛҚЛАРИ ТАРИХINI О‘РГАНИШ – О‘ЗЛИКНИ АНГЛАШДИР

**Xalboyeva Fazilat Rustamovna**

Xorazm viloyati Xonqa tumani

33-son umumta’lim maktabning

tarix fani o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada o’quvchilar O’zbekiston xalqlari tarixini o’rganish orqali o’zligini anglashi haqida mulohaza yuritiladi, shuningdek tarix fanini o’qitishning maqsad va vazifalari, metodikasi haqida fikrlar bildirilgan.

**Kalit so’zlar:** xalq, tarix, o’zlik, sadoqat, vatanparvarlik, metodika, mohiyat, mazmun, millat, ong.

O’zbekistonning mustaqil davlat deb e’lon qilinishi respublikamizning bugungi kuninigina emas, balki istiqbolini ham belgilab beruvchi asosiy omildir. O’zbekiston Respublikasining istiqbol yo’li avlod-ajdodlarimizning tarixiy an’analari va ma’naviy merosiga suyangan holda tanlab olinadi. Zotan, mustaqillik yo’li O’zbekiston xalqlarining tarixiy an’analari va ma’naviy boyliklarini qayta tiklovchi, yangi mazmun bilan boyituvchi yo’ldir. Bu esa tarix o’qitishni milliy asosga qurishni, xalqimizning mehnatsevarlik, do’sstlik, mehmondo’sstlik, ma’rifatparvarlik kabi an’analari, iymon, insof, mehr-oqibat, andisha, or-nomus, Vatanga hamda xalqqa sadoqat kabi oliyjanob fazilatlarini chuqur o’rganishni, ularni asrab-avaylab, yoshlar qalbiga, qon-qoniga singdirish, o’zini anglashga ko’maklashishi, respublikamiz istiqbolini uchun astoydil xizmat qiladigan faollarni yetishtirishni asosiy vazifa qilib qo’yadi.

O’zbekiston xalqlari tarixini o’rganish o’quvchilarning bu tarixiy an’analari va oliyjanob fazilatlar manbalarini, ular mustahkam zaminga egaligini, tarixan tarkib topganligini, avloddan-avlodga o’tib, mazmunan boyib borganligini, jamiyatning ravnaqi va farovonligi, insonlarning ma’naviy kamoloti uchun xizmat qilib kelganligi, ularni bundan keyin ham asrab-avaylab davom ettirish avlodlarimizning insoniy fazilatlariga sodiq bo’lish o’zlarining muqaddas burchlari ekanligini anglab olishlariga yordam beradi.

O’zbekiston xalqlari tarixini o’rganish asosida o’quvchilar bu o’lka xududida qadimdan bir necha o’nlab millat va elatlar yonma-yon yashab kelganligi, ular mahalliy va ajnabiy bosqinchilar zulmiga qarshi birgalikda kurash olib borganligi, o’zbeklar hamisha boshqa millat va xalqlarga alohida hurmat bildirganligi, xalqlar qardoshligi va do’sstligini muqaddas, deb ardoqlaganligi, o’zbek xalqining bu tabarruk an’anasi umuminsoniy qadriyatlarga bebaho xissa bo’lib qo’shilganligi, millatlararo munosabatlar keskinlashib turgan hozirgi paytda bu an’ananing hayotiyliyi yana bir bor sinovdan o’tayotganligini anglab oladilar. Shuningdek, mustabid hukmdorlar va bosqinchilar hokimiyati yillarida xalqimizning moddiy-ma’naviy boyliklari va go’zal an’analari oyoq-osti qilib toptalgan, shaxsga sig’inish va turg’unlik yillaridagi tanglik, paxta yakkahokimligi, kimyoviy moddalarning haddan tashqari ko’p qo’llanilishi O’zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-siyosiy rivojlanishiga to’sqinlik qilganligini, ekologik muhitdagi nomutanosibliklarga, Orol fojiasiga, atrof muhit, yer-suv va havoning ifloslanishiga olib kelganligini, odamlarning sog’ligigagina emas, balki irsiyatga ham ta’sir ko’rsatayotganligini o’quvchilar tushunib olishi, ularning hozirgi ekologik muammolarni hal qilishda, jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy mustaqilligini mustahkamlashda faol ishtirok etishini ta’minlashda muhim ahamiyatga egadir.

O’zbekiston xalqlari tarixini o’rganish o’quvchilarni avlodlarimizning ko’p ming yillik madaniy va ma’naviy merosi, ularni jahon ilmiy tafakkuri va madaniyati taraqqiyotiga qo’shgan ulkan hissasi bilan tanishtirish, madaniyatimizning benazir allomalari nomlarini hurmat bilan tilga olish, ular bilan fahrlanishga, milliy iftixor tarbiyasini amalga oshirishga yordam beradi. Shunday qilib, O’zbekiston xalqlari tarixi o’quvchilarning milliy ongini o’stirishda, o’zligini anglashida, ularning siyosiy madaniyatini oshirishda muhim manbaadir, shuningdek mustaqil yurtimizning ijtimoiy faol va ma’naviy barkamol yoshlarini haqiqiy inson, vatanparvar qilib tarbiyalashda juda katta imkoniyatlarga egadir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tarix fani o’qitish metodikasi. S.I. Hamroyeva.
2. O’zbekiston tarixi. A.Muhammadjanov va boshqalar.





## MIRZO ULUG'BEKNING TAXTGA KELISHI VA UNING PUL ISLOHOTI

**Yuldashev Romon Madrimovich**

Xorazm viloyati Urganch shahar  
28-son maktabning tarix fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada buyuk alloma, ilm homiysi, hukmdor Mirzo Ulug'bekning tarix sahnasiga kelishi, 40 yil davomida saltanatni boshqarishi, ilm-fan, madaniyat, savdo-sotiq ishlarida katta hissa qo'shganligi va kam uchraydigan hamda noyob bo'lgan kumush tangalarni zarb qilganligi haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Mirzo Ulug'bek, Amir Temur, yurish, tanga, tamg'a, zarb, Movarounnahr, islohot, ilm-fan.

Mirzo Ulug'bek Amir Temurning nabirasi va Shohruxning o'g'li bo'lib, u 1394-yil 22-martda G'arbiy Erondagi Sultoniya shahrida tug'ilgan. Onasi Gavharshod og'a Chig'atoy turk amirlaridan G'iyosiddin Tarag'ayning qizi bo'lgan. Ulug'bekning asli ismi Muhammad Tarag'ay bo'lib, bobosi uni yoshligidan beklarning ulug'i deb erkalatgani uchun unga Ulug'bek nomi ism bo'lib qolgan.

Mirzo Ulug'bek Amir Temurning nabirasi va Shohruxning o'g'li bo'lib Sohibqironning “besh yillik yurish”ida (1392-1396) Iroqdagi Mordin qal'asini qamal qilish chog'ida tug'ilgan. Onasi Gavharshod og'a Chig'atoy turk amirlaridan G'iyosiddin Tarag'ayning qizi bo'lgan. Sharafuddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarida yozishicha, Amir Temur huzuriga chopar kelib Ulug'bekning tug'ilgani va munajjimlar bu nevara kelajakda ham olim, ham hukmdor bo'lishini bashorat qilganlari xushxabarini yetkazadi. Sohibqiron xursandligidan Mordin qal'asi qamalini to'xtatib, uning xalqiga yuklangan to'lovni bekor qiladi. Uning o'z nabirasiga Muhammad Tarag'ay va Ulug'bek deb ism qo'rganini ham munajjimlarning yuqoridagi bashorati bilan bog'lash mumkin.

Amir Temur Ulug'bek tarbiyasiga alohida e'tibor bergan va uni davlat ahamiyatiga molik tadbirlarda qatnashtirgan. Klavixoning qayd etishicha, Ulug'bek bobosining xorijiy elchilarni qabul qilish marosimlarida ishtirok etgan. 1404-yil Konigilda o'tkazilgan tantanalarda Amir Temur oltita nabirasining (jumladan, Ulug'bekning) nikoh to'ylarini o'tkazgan. To'yda Sohibqiron Ulug'bekka Toshkent, Sayram, Yangi (hozirgi Taroz), Ashpara va Mo'g'ulistonni to'xtoy hududigacha suyurg'ol qilib bergan. Amir Temur O'trorda vafot etgan chog'da Ulug'bek ham o'sha yerda bo'lgan. Sohibqiron vafotidan keyin Temuriylar o'rtasida toju taxt uchun kurash boshlangan. O'trordan qaytgan Shohrux farzandlari - Ulug'bek va Ibrohim Sultonni amirlar poytaxt Samarqandga kiritmaydilar, ular Buxorodan panoj topishgan. Samarqand taxtini Xalil Sulton egallagan. Xurosonni boshqarib turgan Shohrux Ulug'bekka dastlab Andxo'y bilan Shibirg'inni, keyinchalik Xurosonning Tus, Xabushon, Kalot, Bovard, Naso, Yozir, Sabzavor va Nishopurdan iborat qismini boshqarishni topshirgan. 1410-yil Shohrux Movarounnahrni o'z tasarrufiga kiritgach, uni idora etishni Turkiston viloyati bilan birga Ulug'bekka topshirib, Sohibqiron vasiyatini qayta tiklagan. Ulug'bek yosh (15 yosh) bo'lgani sababli amir Shohmalik unga homiy etib belgilangan. Lekin Shohmalikning raqibi - O'trordagi Shayx Nuriddin va Muhammad Jahongirning Hisordagi voliylari 1410- yil bahorida Ulug'bek va Shohmalikka qarshi chiqqanlar. Shu yilning yozida Shohrux ishtirokida bo'lgan jangda Shohmalik va Ulug'bek g'alaba qilganlar. 1411-yil sentabrda Shohrux Samarqandga kelib, Shohmalikni o'zi bilan Hirotda olib ketgan va keyinchalik Xorazmga hokim qilib yuborgan (1413). Shu vaqtdan boshlab Ulug'bek Movarounnahrni mustaqil idora etishga kirishgan.

Ulug'bek Samarqandda 40 yil hukmronlik qilgan. Musulmon olamida Ulug'bekdan boshqa biron podshoh bu qadar ilm-fanda dovruq' taratmagan. Ulug'bek Samarqandni ilm-fan maskaniga aylantirdi va falakiyot fani rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Uning davrida Movarounnahrda ilm-fan va madaniyat gulladi, savdo-sotiq ravnaq topdi.

Ulug'bek davrida garchi Samarqand va Buxoroda kumush tangalar zarb qilingan bo'lsa ham ularni Ulug'bek o'z nomi bilan emas, balki padari buzrukvor Shohruhning nomi bilan chiqardi. U o'z nomidan kumush pullarni faqat otasi Shohruh vafotidan keyin zarb qilishga kirishdi. Uning nomi bilan kumush pullarni Samarqand va Hirotda zarb qilish ishlari faqatgina ikki yilu etti oy davom etdi. Shuning uchun ham Ulug'bek nomi bilan zarb qilingan kumush tangalar kam uchraydi va noyob hisoblanadi. Shohruhning kumush tangalarida Amir Temur tangalariga xos tamg'a va Temurning nomi yo'q, Ulug'bek tangalarida esa Temur davlatining tamg'asi bilan uning nomi



esga olinadi. Masalan: Temur Ko'ragon himmatidan Ulug'bek Ko'ragon so'zim, zarb Samarqand, 853/1449-yil deb yozilgan. Ulug'bekdan boshqa bironta avlodi o'z nomi bilan Amir Temurning nomini qo'shib tanga zarb qilmagan. Ulug'bek esa xuddi shunday tangalarni 851/1447-yili Xorazmda va 852/1448-yili Hirotda zarb qilgan.

Mirzo Ulug'bek Movarounnahrda savdo-sotiq ishlarini rivojlantirish va bozorda savdo muomalasida yuritilgan mis pullarni tartibga keltirish maqsadida 1428-1429-yillarda pul islohoti o'tkazib, mis pullarni yangi ko'rinishdagi shaklda zarb qildi. Bizga ma'lum Sharq manbalari ichida Ulug'bekning pul islohoti o'tkazganligi to'g'risida hech qanday ma'lumot uchramaydi. Lekin Ulug'bek davrida Movarounnahrda zarb qilingan mis pullarni chuqur o'rganish bu davrda pul islohoti o'tkazilganligini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, numizmatika fani XV asrning birinchi yarmida O'rta Osiyoning iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynagan pul islohoti o'tkazilganligini moddiy dalillar bilan isbotlab, Movarounnahr tarixini o'rganishdagi yana bir sahifani ochib berdi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Давидович Е. А. История денежного обращения средневековой Средней Азии. М., 1983;
2. Н. Vamberi. Бухоро yoxud Movarounnahr tarixi. Т., 1990;
3. I. To'xtiyev. Temur va temuriylar sulolasining tangalari. Т., 1992.
4. Internet saytlari.



## ИРАНСКАЯ ПОЛИТИКА НА БЛИЖНЕМ ВОСТОКЕ: ЭВОЛЮЦИЯ И ПОСЛЕДСТВИЯ

**Фозилходжаева Мафтуна Боходир кизи**  
Факультет истории и цивилизаций Востока  
Кафедра истории стран Востока и антропологии  
**Научный руководитель: к.и.н. Ахмедов М.Б.**

**Аннотация.** На протяжении веков Иран играл важную роль на Ближнем Востоке (БВ). Иран был и остается одной из главных конкурентоспособных региональных держав. После Исламской революции в конце 1970-х годов ее цели и интересы противоречат целям и интересам арабских стран в целом и Египта в частности, что повышает важность углубленного изучения иранской политики.

**Ключевые слова:** Иранская национальная стратегия, Иранская политика, иранские возможности, Ближний Восток.

Иранская политика в США приняла множество аспектов в своем стремлении реализовать свою политику в свете политических преобразований, произошедших в регионе. Эти детерминанты служили иранскому проекту, который основан на выполнении перспективных региональных ролей поддержки с помощью военной силы, которая опирается на традиционных и нетрадиционных возможностей в отношении ядерной программы и развития Ракетных войск в стране, в дополнение к использованию ряда инструментов, которые существуют в регионе и поддерживает политическую и социальную обстановку в арабском регионе, в котором произошли серьезные изменения после Арабских революций в Египте, Тунисе и Ливии, таким образом, служат этой стратегии. К концу 2010 и началу 2011 года арабский мир столкнулся с трансформацией, которая изменила политическую карту. Протесты и волнения, переросшие в революции в Тунисе, затем в Египте, Бахрейне, Ливии, Сирии и Йемене, привели к свержению ряда режимов и арабских государств.

На региональной арене и после арабских революций различные точки зрения и различные стратегии в отношении политических преобразований, принятые рядом стран возникли в арабском регионе. Разница в политике этих стран возникает из-за того, как они рассматривают революции и шаги или политику, которым необходимо следовать, чтобы избежать последствий, которые могут привести к негативным последствиям, с одной стороны, или что такие позитивные преобразования могут быть использованы в региональных стратегиях активных сторон в арабском регионе, с другой стороны, у Ирана была своя точка зрения и видение событий, свидетелями которых является арабский мир. В этом контексте основными исследовательскими вопросами исследования является:

Вопрос 1. Каковы цели и интересы Ирана на БВ?

Вопрос 2. Каковы основные принципы и инструменты иранской политики?

Вопрос 3. Влияние американской политики в отношении Ирана на иранскую политику в США?

### **Столпы иранской политики.**

Иранская политика основана на нескольких столпах, которые сменяющие друг друга иранские правительства пытаются активизировать, чтобы обеспечить влияние благодаря геополитическому положению Ирана в регионе. Стратегическое расположение Ирана накладывает отпечаток на реальность региона и мира. Между тем, иранские возможности проявляются в области демографии посредством распространения иранских национальностей в арабских государствах Персидского залива в дополнение к характеру самого Ирана, отмеченного решимостью достичь своих целей по созданию политической власти, определенных в следующем (Ахмед, 2017):

#### *3.1 Основные принципы, основанные на исторических факторах.*

Эти столпы простираются от исламского завоевания Персидской империи до господства колониализма в регионе в 16 веке и сотрудничества между арабскими и Иранскими правителями в противостоянии этому колониализму. Во все времена между арабами и иранцами существовал контакт, будь то в области столкновений или координации.

#### *3.2 Столпы, основанные на религиозных убеждениях.*



Иран является инкубатором шиитской доктрины в исламе, и Иран использует теорию вилайата аль-Факих для привлечения шиитов, с помощью которой он достигает своих интересов. Шиитская секта характеризуется тем, что является неотделимой религиозной/политической доктриной. С этой точки зрения политическая ориентация Ирана на страны, исповедующие шиизм, характеризуется конфиденциальностью в дополнение к активизации сотрудничества с ними (Фарад, 2011).

*3.3 Основные принципы, основанные на собственных возможностях Ирана во всех областях и, в частности, в области нефти, промышленности, сельского хозяйства и человеческого потенциала.*

*3.4 Основные принципы, основанные на эффективности дипломатического потенциала.*

Иранская дипломатия характеризуется разделением политической напряженности и общих интересов. Поэтому сотрудничество Ирана с большинством стран мира продолжается поэтапно, когда обостряются политические отношения. В той же области Иран постоянно стремится найти прорыв в областях напряженности или областях, представляющих интерес, чтобы использовать его, когда это необходимо, в качестве точки напряжения для достижения иранских целей.

Таким образом, внешняя политика Ирана показывает следующее:

Принятая Ираном доктрина, основанная на идее экспорта революции, сыграла жизненно важную роль в отношениях между Ираном и его арабскими соседями. Иран постоянно стремился к достижению своих политических целей, которые заключаются в сохранении роли единственного государства, познавшего победу Исламской революции. Кроме того, Иран стремится выйти из изоляции, наложенной на него, путем создания мусульманского шиитского государства, ориентированного на шиитские меньшинства за пределами Ирана, заботясь при этом о суннитском фундаментализме (Махмуд, 2013).

Иранская политика была открыта в эпоху президента Мохаммеда Хатами, но приход к власти президента Ахмади Неджада и объявление о необходимости устранения Израиля и его столкновение с новым миром в отношении иранской ядерной программы привели к резкой реакции относительно открытости Ирана миру. Более того, США пытаются ввести блокаду и санкции в отношении Ирана резолюциями Совета Безопасности, а также продолжают угрожать военными ударами по ядерным объектам Ирана, которые усиливаются как Израилем, так и Америкой (Марк и Джозл, 2013).

#### **Интересы Ирана.**

Интересы Ирана, в соответствии с подходом к национальной безопасности и его приложениями, подчеркиваются в следующем (Абу, 2014):

- Защита и обеспечение безопасности иранского режима в соответствии с ценностями и принципами Исламской революции, и работа над их распространением за рубежом под лозунгом Нусрата Мостазафина и противостояние силам высокомерия.
- Укрепление регионального положения государства, участие в управлении мировыми делами, инвестирование международных отношений в обеспечение технологических, экономических и гуманитарных потребностей в развитии.
- Достижение экономического процветания и благосостояния людей и обеспечение устойчивого развития на благо будущих поколений.
- Укрепление сплоченности общества при сохранении силы персидского национализма и шиитской сектантской идентичности.
- Обладание возможностями для защиты и обороны государства и обеспечения его интересов на различных уровнях.

Арабские революции создали новые возможности для Ирана, особенно после падения западных союзников в арабском регионе, а это означает, что все усилия США по навязыванию региональной изоляции потерпели неудачу. Наиболее важные возможности, которые Иран получил после падения режимов, были в Египте, Тунисе и Йемене. Она состоит в том, чтобы представить иранскую политическую модель, создав новый БВ, основанный на обломках. Режимы, которые пали, исламский БВ, стоящий перед проектом “Большой Ближний Восток”. Что выдвинули Соединенные Штаты после оккупации Ирака (2003 год), а также падение режимов способствует восстановлению отношений с этими странами.

Иран в настоящее время стремится навязать себя в качестве доминирующего имперского государства за счет арабских интересов более чем в одной арабской стране, основываясь на





своим проектом региональной экспансии, для которого причина в том, что Иран превратился в серьезную региональную проблему и источник угрозы и разногласий для безопасности и высших интересов арабских стран, начиная с Совета сотрудничества стран Персидского залива и распространяясь на многие досье, наиболее примечательным из которых является ядерное досье, досье иранского регионального влияния, вмешательство в арабские кризисы, его прямая угроза национальной безопасности Саудовской Аравии и судоходству в Баб-эль-Мандебе. Такая практика раскрыла реальность иранского проекта и его имперских амбиций, о чем свидетельствуют заявления Али Юниса – советника президента Ирана Хасана Роухани, который выступил с лекцией под названием “Иранская идентичность” о возрождении Иранской империи и о том, что Ирак был и останется столицей этой империи. Позже другой иранский лидер заявляет, что Иран стал лицом, принимающим решения в четырех арабских столицах: Багдаде, Дамаске, Бейруте и Санае. Комментарии информационного агентства Mehr, иранского полуофициального агентства, через его редактора Хасана Хани Заде помогли разрешить иранское восприятие Ирака как “иранского протектората” или “иранского государства” в Иранской империи на земле арабов. Он призвал Ирак объединиться с Ираном на религиозной почве и убедил иракцев отказаться от ложного арабизма и унижения арабов.

Эти идеи раскрыли или, скорее, преуспели в раскрытии реальности роли Ирана не только в Ираке, но и во всех арабских странах, в которых шииты являются его составной частью. Очевидно, что арабо-шиитский компонент, с точки зрения иранского стратегического мышления, является наиболее важной опорой для расширения иранского влияния. Захват контроля над принятием решений в четырех арабских столицах, которые считались подверженными иранскому влиянию, входил в приоритет сектантского измерения или сектантского оружия, а сопротивление и борьба с высокомерием не имеют ничего общего с этим проектом (Самира, 2013).

Группа крупных держав 5+1 (постоянные члены Совета Безопасности) также объявила, что Организация Объединенных Наций, а также Германия в Швейцарии в апреле 2015 года достигли соглашения.

Окончательное соглашение с Ираном по его ядерной программе, и соглашение в его общем принципе предусматривает отмену международных санкций в отношении Ирана в обмен на отказ от военных аспектов своей ядерной программы, тогда как никакие международные участники не приветствовали соглашение, а также иные лица в том, что израильский премьер-министр Биньямин Нетаньяху охарактеризовал как “ историческую ошибку ”, не вступит в силу, тем более раскол, который предусматривает отмену санкций ООН в отношении Ирана, пока международное агентство по атомной энергии не утвердит Соблюдение Ираном всех своих обязательств по соглашению, особенно в отношении осуществления строгого контроля за его ядерной деятельностью и объектами, включая некоторые военные объекты, но, несмотря на подписание ядерного соглашения, Палата представителей США одобрила 15 ноября 2016 года законопроект о продлении санкций в отношении Ирана на срок (10) лет, чтобы остановить крупные иностранные инвестиции в энергетический сектор Ирана, лишаящие иранский режим возможности оказывать финансовую поддержку международному терроризму и развертыванию ядерного оружия.

#### **Список использованной литературы**

1. Abu, V. (2014), *Iranian Trends in the Arab Region and Their Impact on National Security*, Second Edition, Sadiq Center Library, pp. 89-91.
2. Ads, T. (2014), “ Prospects for the development of Egyptian-Iranian relations”, Magazine Iranian Anthology, Cairo: Center for Political and Strategic Studies in Al Ahram, No. 130, p. 65 May.
3. Ahmed, A. (2017), “The influence of the political leadership on Iran’s foreign policy: a comparative study between Mahmoud Ahmadinejad and Hussein Rohani”, Master Thesis, Cairo University, Faculty of Economics and Political Science, pp. 58-63.
4. Alan, C. (2014), *Security and Southeast Asia: Domestic, Regional and Global Issues*, Lynne Rienner Publishers, London, pp. 9-10. Farad, K. (2011), “The Islamic revolution in Iran: retrospect after a quarter of a century”, Thesis Eleven, Vol. 70 No. 76, p. 75.
5. Mahmud, S. (2013), “The foreign policy of the Islamic Republic of Iran: theoretical renewal



and a search for paradigm”, Iranian Quarterly, Vol. 4 No. 4, pp. 21-26. .

6. Mark, K. and Joel, K. (2013), Introduction to Comparative Politics: Political Challenges and Changing Agendas, 5th edition, Engage Learning, Boston, Wadsworth, p. 608.

7. Mouse, Q. (2012), “The regional role of Iran in the Middle east during the period from 1991 to 2010”, Master Thesis, Cairo University, Faculty of Economics and Political Science, pp. 67-68.

8. Rezaei, A. (2014), Foreign Policy Theories: Implications for the Foreign Policy Analysis of Iran, in Iran`s Foreign Policy from Khatami to Ahmad Inejad, in Ehteshami, A. and Zawierci, M. (Eds), Ithaca press, London, pp. 17-21.

9. Sadako, O. (2012), “The fi nal report of the commission on human security”, State Security and Human Security: Human Security Now, Commission on Human Security, New York, NY United Nations, p. 5.

10. Sahara, H. (2017), “The impact of the Turkish-Iranian competition on regional security in the Middle east (2002-2015)”, PhD, Cairo University, Faculty of Economics and Political Science, pp. 110-113.

11. Samira, A. (2013), “The impact of economic sanction on Iran`s economy and foreign policy”, Washington Dc, pp. 1-5.

12. Sariolghalam, M. (2015), “Globalization and Iran national sovereignty: challenge of compatibility”, Iranian Quarterly, Vol. 5 No. 3, pp. 21-26.



## ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ МАНИХЕЙСТВА И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРЫ В СРЕДНЕЙ АЗИИ

Шомуратова Садоқат Норметовна

Хоразм Вилояти Шовот тумани

3 -сон тарих фани мутахассис уқитувчиси

**Ключевые слова:** Афрасиаб, Маний, Варахша, Чаганиан, Туранташ, синкретическое учение

**Аннотация:** История возникновения манихейства и его влияние на мировую культуру древней цивилизации.

Абу Райхон Беруний в своей книги «Памятники минувших поколений» пишет что он родился в Вавилоне в 216 году нашей эры. Он родился в Вавилоне для которой характерна многонациональная и многоязычная среда, благоприятная для создания синкретических учений.( синкрет от греческого «соединение, объединение соединение разнородных вероучительных и культовых положений в процессе взаимовлияния религии в их историческом») Основу учение Мани составляет дуалистическая концепция о том, что мир состоит из двух начал: светлого и темного, которые находятся в непрерывной борьбе между собой. Манихеи утверждали что в космосе существовало два вечных противоположных друг другу бога – света и тьмы. На борьбу с богом тьмы был послан первый человек- Хормизд в помощь которому бог света придал пять священных элементов: чистый воздух, теплый ветер, свет, воду и очистительный огонь. Борьба оканчивается неудачей, и первочеловек просит помощи у бога, который посылает ему духа «живого», однако несмотря на это, душа первочеловека остается во власти тьмы. В каждом человеке, по вероучением манихеев, душа также является порождением зла, а доброе истинное начало заключено в искре божьего света.

Задача каждого истинного манихейца заключена в ее освобождении, что может быть достигнуто путем нравственного совершенства.

Высокие моральные категории, проповедоваемые манихеями привлекли к ним массы бедного и среднего населения. Манихейство, благодаря хорошо поставленной проповеди, еще при жизни Мани стало распространяться не только в Иране, но и в Месопотамии, Малой Азии, Риме, на Востоке и в Средней Азии. Сам Мани утверждал, что «вера моя ясной бывает в каждой стране и на любом языке и распространяется в далекие страны».

Манихеи создали обширную литературу, главным образом, религиозного характера. Мани написал множество сочинений на восточноарамейском наречии и среднеиранском языке, а для их записи он применял разновидность сирийского письма передающего гласные звуки иранского языка, что в большей степени облегчало чтение и письмо. Поэтому его учение легко было понять и доступно было всем слоям населения. Кроме того, согласно многим преданиям, Мани был выдающимся художником, проиллюстрировавшим свои произведения, равного которому не было в мире. До недавнего времени имя Мани у народов Средней Азии и Ирана являлось символом великого художника.

Успехи учения Мани, отдельные элементы социального протеста, какими бы они не были пассивными, не могли не вызвать опасений у правящего класса и зороастрийского жречества Ирана. Поэтому при следующем сасанидском царе Варахране I(273-276 г.н.э) Мани был заключен в тюрьму и казнен, сторонники манихейской религии подвергались жестким преследованиям. Массы манихеев переселились в Среднюю Азию. Арабский историк Ан-Надим писал: «Первой религией помимо буддизма, которая проникла в Мавереннахр, было манихейство. Причиной было то что после смерти Мани его последователей стали изгнать где бы они не находились. И они бежали от них, пока не перешли реку Балх (Амударья) и не вступили в них»

В Средней Азии манихейские общины были основаны еще при жизни Мани. Он отправил сюда своего ученика Мар-Амо. Он основал свое учение и основал свою общину. Позднее манихейство широко распространяется во многих городах и областях Средней Азии, но главными её центрами здесь были Мерв, Самарканд и Чаганиан. Манихеи были глубокими мудрецами и учеными. В Согдийских надписях рассказывается о посольстве



царя Туранташа к царю Самарканда Авархуману. Об этом свидетельствует настенная живопись Афрасиаба.

На протяжении нескольких столетий манихейство играло важную роль в развитии архитектуры, изобразительного и прикладного искусства, о чем свидетельствует настенная живопись Варахши и Афрасиаба. Особую роль играли манихеи в развитии музыки, книжной миниатюры. Богато иллюстрированные манихейские книги поражали современников.

Считается что манихейские монастыри являлись прототипами появившихся позднее мусульманских ханако. Многие астрономические трактаты оставленные манихеями в последствии привели к строительству астрономических обсерватории. Манихейства ыграло очень важную роль в истории Средней Азии. Они пронесли духовные ценности своих вероучений через страны и народы, через страдания и гонения.

#### **Использованные литературы:**

1. Белинский А.М. Вопросы идеологии и культов Согда по материалам пенжикентских храмов. М.,1954г.
2. Ртвеладзе Э.В. Великий шелковый путь Т., 1999г.
3. Никитин А.Б Христианство в Центральной Азии (древность и средневековье). Восточный Туркестан и Средняя Азия М.,1984г.
4. Толстов С.П. Древний Хорезм М.,1948г.





## TARIX DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL METODLAR

**Eshanova Roza Srajatdinovna**

Qoraqalpog'iston Respublikasi Shumanay tumani  
Kasb – hunar kolleji tarix fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada tarix darslarini tashkil etishda ayrim interfaol metodlar haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** samaradorlik, mavzuga zamin, pochta qutisi, topib ko'richi metodi.

Hozirgi vaqtda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifa o'quvchilarning ilm olishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, ularning tasavvurlarini kengaytirishdan iborat. Ana shu ishni amalga oshirish uchun bugungi kungacha bir qator tadbirlar bajarildiki, natijada umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi ta'lim samaradorligining muvaffaqiyatiga zamin yaratildi. Dars samaradorligining muhim shartlaridan biri bu - o'qituvchi va o'quvchilarning haqiqatni birgalikda izlashi va o'quvchilarning butun dars jarayonida faol ishtirok etishidir. Albatta, bu o'rinda o'qituvchiga yangi pedagogik texnologiyalar qo'l kelishi amaliyot ko'rsatib turibdi.

Maktablarda o'qitilayotgan ijtimoiy, shu jumladan tarix fani o'zida oliyjanob fazilatlarini mujassamlashtirilgan insonni tarbiyalashda benihoya ahamiyat kasb etadi. Maktabda o'quvchi kishilik jamiyati bosib o'tgan yo'lni, ularning chet el bosqinchilariga qarshi, o'z ozodligi va baxt-saodati, porloq kelajagi uchun olib borgan kurashlari haqidagi asosiy ma'lumotlarni tarix darslaridan bilib oladi. Shu bilan birga tarix darslari o'quvchining hozirgi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni to'g'ri anglashga yordamlashadi.

Bizga ma'lumki tarix-juda qadimiy fanlardan biri hisoblanadi. Tarix fanini kelajakni ko'rsatuvchi „Ko'zgu“ desak bo'ladi va bu ko'zguna qarab har qanday inson, jamiyat, xalq o'z kelajagini belgilab olishi mumkin. Hozirgi kunda

O'zbekiston rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin egallashi onson kechgani yo'q. Shuning uchun tarixni o'qitish jarayonida o'quvchilar bugungi kunning qadriga yetishini, o'tmishda yo'l qo'yilgan xatolarni takrorlamaslikni, o'tmishdagi xatolardan xulosa chiqarib olishini o'rgatish lozimdir. Qolaversa maktabda tarix fanini o'qitish orqali o'quvchilarda o'zlari mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga, miliy ong va tafakkurni o'stirishga, eng asosiysi ma'naviy barkamol shaxsni, haqiqiy vatanparvar insonni tarbiyalab voyaga yetkazishga ahamiyat berish lozim.

“Mavzuga zamin” usuli Maqsad: O'quvchilarni o'tilgan mavzuni mustahkamlashdan oldin, shu mavzu bo'yicha o'quvchilarni darsga tayyorlash ya'ni zamin hozirlash. Bizga ma'lumki o'quvchilar mavzuni o'qituvchi tushuntirib berishi chog'ida va o'zi darslikdan o'qib o'zlashtirishi mumkin. Lekin bu degani sinfda hamma o'quvchilar o'zlashtira oladi degani emas. Chunki hamma o'quvchilarning xotirasi, fikrlash doirasi birdayin bo'lmaydi. Shuning uchun ularga turli xil o'yinlar, sahnali ko'rinishlar, baxs-munozaralar orqali darslar tashkil qilinsa, sinfdagi uncha yaxshi o'zlashtira olmaydigan o'quvchilar ham mavzu haqida tushuncha hosil qilibgina qolmasdan, mustahkamlab oladi. Dars jarayonida o'tilgan mavzuni mustahkamlash chog'ida, avvalombor, o'quvchilarni darsga tayyorlab olishi kerak. Yaxshi dars o'tilishi, o'quvchilarning yaxshi o'zlashtira olishi eng birinchi navbatda o'qituvchi o'quvchilarni o'ziga jalb qilishi, o'tilgan mavzuni dab-durustdan boshlab, ularga o'tilgan mavzu yuzasidan topshiriqlar berishdan emas, aksincha o'quvchilarni o'tilgan mavzu haqida qisqacha tasavvur hosil qilib olishiga bog'liq. Bu usul ko'proq o'quvchilarni darsga tayyorlab olishi, o'tilgan mavzuni takrorlab, mustahkamlashga zamin hozirlash uchun ishlatiladi. Bu usul 5-11 sinflarda amalga oshirilsa maqsadga muvofiq. Guruhlar belgilanadi. O'quvchilar guruhlariga 5- 7 kishidan bo'linishlari kerak. Guruhlarga bo'lish chog'ida guruhlarning kuchlari teng bo'lishiga ahamiyat berish lozim. Har bir guruhga 2-3 ta yaxshi o'zlashtira oladigan o'quvchilarni va unga yaxshi o'zlashtira olmaydigan o'quvchilarni joylashtirib bo'lish kerak.

Har bir guruh o'ziga nom qo'yish kerak. Buning uchun o'qituvchi guruhlariga quyidagicha murojaat qiladi: „Siz guruhga nom qo'yayotganda quyidagilarga e'tibor bering?

Siz guruhingizga o'tilgan mavzuning ichidan biror-bir voqeani keltirib chiqaruvchi so'zlar yoki o'tilgan mavzuning asosiy mazmunlaridan birini tashkil etuvchi so'zlar orqali nom qoying; Guruhingiz bilan bu nomni nima uchun qo'yganligingizni aytib berish uchun tayyorlaning (1-minut vaqt beriladi). Har





bir guruh nom qo'yib bo'lgandan so'ng, u guruhlardan bu nomni nima uchun qo'yganligi so'ralishi kerak.

Yuqoridagilarni o'tkazib bo'lgandan so'ng, o'quvchilar o'tilgan mavzu haqida qisqacha tushuncha hosil qilib, o'quvchilar mavzuni mustahkamlash uchun zamin hozirlanadi. Keyin o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun shu guruhlarga savollar, topshiriqlar berish mumkin.

**”Pochta qutisi”usuli.**

Bu usulni guruhlarda ham, kichik juftliklarda ham qo'llash mumkin. Bunda o'quvchilarga turli mavzular yuzasidan aralash atama va tushunchalar aralash holatda beriladi. Pochta qutisi berilgandan so'ng o'quvchilarga quti ichidagi so'z yoki atamalarni mos tarzda ajratishi aytiladi.

Topshiriqni bajarish uchun so'zlar soniga qarab vaqt beriladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. N.N.Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat.-T.: TDPU. 2003.
2. Asqarov A. O'zbekiston mustaqilligi sharoitida tarix fanining vazifalari.- “O'zbekistonda ijtimoiy fanlar” 1992. № 7-8.



## TARIX VA TARBIYA DARSLARINI TASHKIL ETISHGA INNOVATSION YONDASHUV

**Omonboy Miskinov Davlatboyevich**

Xorazm viloyati Shovot tumani

50 – maktab tarbiya fani o'qituvchisi

**Atajanova Gulshoda Saburovna**

Xorazm viloyati Shovot tumani

50 – maktab tarix fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarix va tarbiya darslarida qo'llash mumkin bo'lgan pedagogik texnologiyalar, kasbiy soha, o'quvchilarning kasbga qiziqtirish, interfaol usullar va ulardan namunalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** pedagogik texnologiyalar, rolli o'yin, ishbop o'yin, assessment, keys stadi.

Ta'lim muassasalari tizimida tarix va tarbiya fanlarini o'qitish mazmunini kasbiy sohayo'nalishlarining mohiyatiga mos shaklda rivojlantirish, ya'ni 10 – 11 sinflarning kasbiy qiziqishidan kelib chiqqan holda qo'shimcha ma'lumotlar kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

O'qitish jarayonini kasbiy yo'naltirish - berilayotgan bilimlarni 10 – 11 sinflarning kasbiy yo'nalishidan kelib chiqib darsni tashkil etishdir.

Tarix fanlarini o'qitishda tarixiy bilim, tushuncha va tasavvurlarni egallash, ularni izohlash, ko'nikma va malakani shakllantirish orqali o'quvchilar intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni, ularga kasb-hunarga yo'naltirilgan bilim berishni ta'minlash va kasb-hunar kolleji o'quvchilarining kasb-hunarga qiziqishini oshirish maqsad qilib olingan. Tarix fanlarini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, o'quvchilarning tanlagan kasbi bilan bog'liq bo'lgan tarixiy bilim, tushuncha, tassavurni yanada rivojlantirish hamda o'zining sohasiga doir tarixiy bilimlar bilan tanishtirish ularni hayotga va kasbiy faoliyatiga tatbiq etishni o'rgatishdir.

**“ROLLI O'YIN”** - ta'lim oluvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko'rsatib beruvchi o'yindir.

Rolli o'yinlarning ishbop o'yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir. Shu bilan birga “Rolli o'yin”da ta'lim oluvchilar ta'lim beruvchi tomonidan ishlab chiqilgan senariydagi rollarni ijro etish bilan kifoyalanishsa, “Ishbop o'yin”ida rol ijro etuvchilar ma'lum vaziyatda qanday vazifalarni bajarish lozimligini mustaqil ravishda o'zlari hal etadilar.

**“Rolli o'yin”ining tuzilmasi**

**“Rolli o'yin” ining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha o'yinning maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli o'yin senariysini ishlab chiqadi.

2. O'yinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi.

3. O'yinning maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.

4. Ta'lim oluvchilar o'z rollarini ijro etadilar. Boshqa ta'lim oluvchilar ularni kuzatib turadilar.

5. O'yin yakunida ta'lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo'lgan ta'lim oluvchilar o'z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o'yinga xulosa qilinadi.

**“ISHBOP O'YIN”** - berilgan topshiriqlarga ko'ra yoki o'yin ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan har xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilishni imitatsiya qilish (taqlid, aks ettirish) hisoblanadi.

O'yin faoliyati biron bir tashkilot vakili sifatida ishtirok etayotgan ishtirokchining hulq-atvori va ijtimoiy vazifalarini imitatsiya qilish orqali beriladi. Bir tomondan o'yin nazorat qilinsa, ikkinchi tomondan oraliq natijalarga ko'ra ishtirokchilar o'z faoliyatlarini o'zgartirish imkoniyatiga ham ega bo'ladi. Ishbop o'yinda rollar va rollarning maqsadi aralashgan holda bo'ladi. Ishtirokchilarning bir qismi qat'iy belgilangan va o'yin davomida o'zgarimas rolni ijro etishlari lozim. Bir qism ishtirokchilar rollarini shaxsiy tajribalari va bilimlari asosida o'z maqsadlarini belgilaydilar. Ishbop o'yinda har bir ishtirokchi alohida rolli maqsadni bajarishi kerak. Shuning uchun vazifani bajarish jarayoni individual-guruhli harakterga ega. Har bir ishtirokchi avval o'zining vazifasi bo'yicha qaror qabul qiladi, so'ngra guruh bilan maslahatlashadi. O'yin yakunida har bir ishtirokchi va



guruh erishgan natijalariga qarab baholanadi. Quyida “Ishbop o‘yin”ining tuzilmasi keltirilgan.

**“Ishbop o‘yin”ining tuzilmasi**

**Ishbop o‘yin”ining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta’lim beruvchi mavzu tanlaydi, maqsad va natijalarni aniqlaydi. Qatnashchilar uchun yo‘riqnomalar va baholash mezonlarini ishlab chiqadi.

2. Ta’lim oluvchilarni o‘yinning maqsadi, shartlari va natijalarni baholash mezonlari bilan tanishtiradi.

3. Ta’lim oluvchilarga vazifalarni taqsimlaydi, maslahatlar beradi.

4. Ta’lim oluvchilar o‘z rollari bo‘yicha tayyorgarlik ko‘radilar.

5. Ta’lim oluvchilar tasdiqlangan shartlarga binoan o‘yinni amalga oshiradilar. Ta’lim beruvchi o‘yin jarayoniga aralashmasdan kuzatadi.

6. O‘yin yakunida ta’lim beruvchi muhokamani tashkil etadi. Ekspertlarning xulosalari tinglanadi, fikr-mulohazalar aytiladi.

7. Ishlab chiqilgan baholash mezonlari asosida natijalar baholanadi.

Har bir rolni ijro etuvchi o‘z vazifasini to‘g‘ri bajarishi, berilgan vaziyatda o‘zini qanday tutishi kerakligini namoyish eta olishi, muammoli holatlardan chiqib ketish qobiliyatini ko‘rsata olishi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shodiyorov tarix fanini o‘qitish metodikasi majmua
2. Davlatov tarbiya darslarini tashkil etish usllari majmua





## TURKISTONDAGI MUSTAMLAKACHILIKNI MADANIYATGA TA’SIRI

**Alimova Madina Zokirjonovna**  
Samarqand viloyati Nurobod tumani  
11-umumiy o’rta ta’lim maktabi  
Tarix fani o’qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida rus hukumatining o’lkamizda olib borgan mustamlakachilik siyosatini madaniyatimizga ta’siri, ijobiy va salbiy oqibatlarini haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so’zlar:** Mustamlakachilik, madaniy meros, O’rta osiyo

O’rta osiyo xonliklar Rossiya mustamlakasiga aylangandan song Rossiya imperiyasi Turkiston xalqini ma’naviy-madaniy jihatdan tutqinlikka solish, o’zining uzoqqa mo’ljallangan manfaatiga bo’ysundirish siyosatini yuritdi. Uning mohiyati, mazmuni mahalliy xalqni uning milliy, tarixiy ildizlaridan uzib tashlash, xalqning ma’naviy, madaniy, tarixiy merosini yo’q qilish, ruslashtirishdan iborat edi. Turkiston general-gubernatorligining Farg’ona viloyati harbiy-gubernatori Skobelev so’zi bilan aytgandai: «Millatni yo’q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini, san’atini, tilini yo’q qilsang bas, tez orada o’zi tanazzulga uchraydi» Turkistonda ana shunday yovuz qarashlarga mos siyosat va amaliyot yuritildi. Mustamlakachilar tomonidan o’zbek xalqining boy madaniyati talon taroj qilindi. O’zbeklarning qimmatbaho tarixiy asori atiqalari va boy yozma manbalari Peterburg va Moskvaga tashib ketildi. San’at darajasida ishlangan Muhammad Rahim taxti, Amir Temur maqbarasining naqshinkor darvozasi, undagi bitiklar, oynalar, oltin koshinlar, Ahmad Yassaviy maqbarasidagi naqshinlar, katta qozon («Nazrniyoz qozoni») turli tarixiy buyumlar, noyob kitoblar va boshqalar shular jumlasidandir. Ma’naviyat va madaniyatning asosiy belgilaridan biri din hisoblanishini yaxshi bilgan mustamlakachilar tomonidan Islom diniga e’tiqod, ruhoniylar, masjid va madrasalar oyoq osti qildi. Bundan ko’zlangan asosiy maqsad esa axolini dindan ajratgan holda o’z madaniyatini singdirishdan iborat edi. Rossiya ma’murlari musulmon muassasalari, madrasa ishlariga aralashib, ularning faoliyatini tobora cheklab bordi. Maorif va madaniyat sohasida ruslashtirish siyosati yuritildi. Turkistonlik bolalarni ruslar bilan aralashtirib o’qitish va tarbiyalash g’oyasi ilgari surildi va 1884-yilda Toshkentda dastlabki «rus-tuzem maktabi» ochildi. XIX asr oxirida ularning soni yuztadan oshib ketdi. Bunday maktablarda rus va o’zbek muallimlari dars mashg’ulotlarini o’tadigan bo’ldi. Maqsad o’zbek yoshlariga rus tilini o’rgatish va rus turmush tarzini singdirish edi. Rus tilini yerli aholiga singdirish uchun aynan tilni o’rgatish va bu orqali xalqni madaniyatidan uzoqlashtirish edi.

Rossiya ma’murlari yerli aholi bolalarini «rus-tuzem maktablari»ga jalb qilish, qiziqtirish uchun o’lkadagi mahalliy ma’muriyat boshqaruvida rus tilini bilganlar ishlaydi, degan talabni qo’yidilar. Bu talabdan maqsad «yerlilarda mansabga qiziqib» rus tilini o’rganish, ruslashish manfaatini uyg’otish edi. Rus tilini bilgan mahalliy aholi vakil la riga imtiyozlar yaratildi. Shu tariqa, o’lkada ish yuritish asta-sekin rus tiliga o’tkazila bordi. Mahalliy aholiga Rossiyaning ulug’vorligini ko’rsatish, yevropacha turmush tarziga qiziqtirish uchun Rossiyaning markaziy shaharlariga sayohatlar uyushtirildi. Katta yoshdagilarni, shuningdek, yoshlarni guruh-guruh qilib, Peterburg, Moskva va boshqa shaharlarga olib borib, oq podshohning qudratini, baland imoratlar, ishlab chiqarish korxonalarini ko’rsatishadi. Mustamlakachilar syo hatchilar o’z yurtiga qaytib borgach, Rossiyaning ulug’vorligi haqida vatandoshlariga so’zlab beradi, Rossiya tarkibida bo’lganidan g’ururlanadi, degan maqsadda edilar. Bu tadbirlar ruslashtirish manfaatlarini ko’zlab uyushtirilardi. Mustamlakachilarning yerli aholi turmushiga ma’naviy-ruhiy taz yiq o’tkazish dasturida o’lka xotin-qizlarini ruscha hayot tarziga o’rga tish masalasiga alohida o’rin berilgan edi. Shu maqsadda, shaharlarda xotin-qizlar ambulatoriyalari tashkil etilib, ularda rus shifokorlari faoliyat ko’rsatdi. Ambulatoriyalarda ayollarga zarur tibbiy maslahatlar, tibbiy yordamlar ko’rsatildi, bu ijobiy hol, albatta. Shu bilan birga, ayollarga ruscha turmush tarziga o’tish, ular ning farzandlari tarbiyasiga ta’sir etish, pravoslavcha qarash larning afzalligi, «paranji zulmidan xalos bo’lish, ochilish» zarurligi haqida tashviqot qilindi. Albatta ushbu amalga oshirilgan ishlarning asl maqsadi o’zbek xalqiga rus madaniyatini singdirish orqali o’z madaniyatidan uzoqlashtirishdan iborat bo’ldi.

Xulosa o’rnida aytish mumkinki, rus hukumati mustamlakachilik siyosati bosqichma bosqich amalga oshirdi. Bundan ko’zlangan maqsad esa xalqni ma’naviyatidan ayirish, o’zliklarini



unutishlari uchun yangicha madaniyatni olib kelishdi Shuni ham tan olish kerakki mustamlakachilar tomonidan o'lkaga ko'plab kommunikatsiya, texnika yangiliklari va ilm fan kirib kelganini tan olish kerak. Lekin ular yetkazgan ziyon olib kelgan yangiliklardan ancha ko'p edi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov takidlaganidek «Bu salbiy oqibat tashqaridan olib kiritilgan sivilizatsiya natijalaridan ko'ra bir necha barobar ortiq edi»

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bog'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: «O'zbekiston». 1997. 55-bet.
2. Q. USMONOV, M. SODIQOV S. BURXONOVA”O‘ZBEKISTON TARIXI” Toshkent «IQTISOD-MOLIYA»2016



## BUYUK IPAK YO‘LIDA SERVIS XIZMATLAR

**Allaberganov Hamidbek**  
Urganch davlat universiteti  
Tarix fakulteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada buyuk ipak yo‘lida joylashgan, aloqa yo‘llari haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** aloqa, tamg‘a, transport, xabarlar, Buyuk Ipak yo‘li, xizmatlar.

Bizga ma‘lumki o‘tgan davridayam hozirgi davridayam “aloqa servisi” biz uchun juda muhim, xo‘sh aloqa degani nima?

**Aloqa** – turli vositalar yordamida axborotlarni uzatish va kabul qilish; xalq xo‘jaligining pochta, telefon, telegraf, radio, televideniye va boshqa orqali axborotlarni uzatish va qabul qilishni (pochta orqali buyumlar yuborishni ham) ta‘minlaydigan tarmog‘i hisoblanadi. Aloqa jamiyatning ishlab chiqarish xo‘jalik faoliyatida, davlat, qurolli kuchlar va jami transport turlarini boshqarishda, shuningdek, aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirishda muhim ahamiyatga ega. Qadimda xabarlar bir manzildan ikkinchisiga choparlar, kabutarlar yordamida yetkazilgan, ularni uzatishda shartli signallar – gulxanlar, chiroqlar, har xil ovoz chiqaruvchi asboblari qo‘llanilgan. Keyinchalik xabarlar yozma holda jo‘natiladigan bo‘ldi, natijada pochta aloqasi paydo bo‘ldi.

Turkiston o‘lkasida aloqa sohasining rivojlanish tarixi.

**Pochta.** Avvalgi o‘tgan davrlarda mamlakatlar, shaharlar bilan o‘zaro aloqalar o‘rnatish, xabar va axborotlar almashish va tarqatish ishlarini amalga oshirish masalalari chuqur tarixga ega. Qadimdan xabar almashuvining har xil turlari bo‘lib, jumladan, ovozi ya‘ni nog‘ora sadolari, olovli, tutunli, yoruqlik nurlaridan foydalanish, kabutarlar yordamida xabar almashish hamda karvonlar orqali estafeta usuli bilan kerakli ishlar tashkil etilgan. O‘tgan asrlarda davlatlar, shaharlar va zarur joylar bilan aloqa o‘rnatish, axborot almashish, xabar yuborish, o‘zaro muloqot ishlarini tashkil etish Buyuk Ipak yo‘li orqali amalga oshirilganligi haqidagi ma‘lumotlar “Arastuning qadimiy qo‘lyozmalarida” o‘z ifodasini topgan. Qadimda choparlar yordamida Buyuk Ipak Yo‘li orqali axborot almashish ishlari yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu karvon yo‘li bo‘ylab, har 15-20 kilometr oraliqda alohida pochta stansiyalari (rovotlar) bo‘lib, ushbu stansiyalar mahsus harbiylar tomonidan qo‘riqlangan. Maxsus choparlik xizmatini o‘tovchilar xonlikning maxsus kumush yoki bronzadan yasalgan 3-6 santimetrli, egalari nomi ko‘rsatilgan tamg‘alar bilan ta‘minlangan. Mazkur tamg‘alar choparlarga karvon yo‘llari va belgilangan yo‘nalishlarda erkin harakatlanishlari, xonlik pistirmalaridan bemaol o‘tish, pochta stansiyalarida ovqatlanish, otlarni almashtirish, dam olish va o‘zidagi barcha axborotlarni keyingi choparga uzatish imkoniyatlarini bergan. Mo‘g‘ul-Tatar hukmronligi davrida qo‘llanilgan ushbu estafeta orqali axborot almashish ishlari qulay, ishonchli va sifatli bo‘lganligi sababli, uzoq muddatlargacha, ya‘ni Temuriylar davridan to XIX asrgacha qo‘llanib kelingan hamda ushbu yo‘nalish pochta xizmatining rivojlanishiga asos bo‘lgan. Xiva, Qo‘qon Xonliklari va Buxoro amirligi hamda chegaradosh bo‘lgan davlatlar bilan Buyuk Ipak yo‘li orqali axborot va ma‘lumotlarni yuborish hamda tijorat ishlari amalga oshirilgan yo‘nalishlar ko‘rsatilgan. O‘rta davrlarda, shu jumladan, XVIII asrga kelib pochta jo‘natmalari ot arava yoki piyodalar bilan ayrim holatlarda esa savdo karvonlari orqali yetkazib berilgan. O‘tgan davrlardagi oddiy aholi qatlami bir-birlari bilan faqat og‘zaki xabar almashib turganlar

**Karvon yo‘lida aloqa servisi.** Dastlab “Karvon” atamasining izohli ma‘nosiga to‘xtalsak - **Karvon** (*fors.*) ( uzoq, joylarga yuk va odam tashuvchi, qator bo‘lib ketayotgan hayvonlar (tuya, eshak, xachir, otlar), aravalar va ularni boshqaruvchi shaxslar guruhi) Karvon uzilib qolmasligi uchun eng oldingi va oxirgi hayvonga qo‘ng‘iroq osib qo‘yilgan; 2) o‘zaro yordam va xavfsizlikni ta‘minlash uchun birga qo‘shilib yo‘lga chiqqan yo‘lovchilar, sayyohlar yoki elchilar guruhi. Karvonni karvonboshi boshqargan; 3) daryo Karvoni – o‘zi suza olmagan uchun qator qilib shatakka olingan kemalar (barja, sollar); 4) uzoq masofalarga maxsus yuk tashib beradigan kemalar birikmasi; ketma-ket ketayotgan yoki ketma-ket turgan bir necha kema”<sup>1</sup>. Arxeologik tadqiqotchilarning izlanishlari natijasiga ko‘ra:

Buyuk ipak yo‘li – qadimda va o‘rta asrlarda Xitoydan O‘rta va Old Osiyogacha bo‘lgan karvon

<sup>1</sup> O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil



yo‘li. Miloddan avvalgi 2-asrda ochilgan. Siandan Lanchjou orqali Dunxuanga olib borgan, u yerdan esa ikkiga bo‘lingan. Shimoliy yo‘l Turfan orqali o‘tgan, keyin Pomirni kesib o‘tgach, Farg‘ona va qozoq cho‘llarigacha borgan. Janubiy yo‘l Lobnor ko‘li yonidan Takla-Makon cho‘lining janubiy sarhadlari bo‘yicha Yarkend va Pamir (janubiy qismida) orqali Baktriyaga, u yerdan esa - Parfiya, Hindiston, va Yaqin Sharqga olib borgan. Old Osiyo, O‘rta Osiyo va Xitoy xalqlarining iqtisodiy va madaniy aloqalarini rivojlantirishda katta rol o‘ynagan. Atama ushbu yo‘ldan tashilgan qimmatbaho tovar – Xitoy ipagi bilan bog‘liq. Buning sababi, Xitoy uzoq vaqt ipak ishlab chiqarish usulini sir saqlay olgan.

Bunday katta savdo savdo yo‘lida albatta biron bir buyumni sotish va sotib olish uchun u buyim haqida to‘liq ma‘lumot zarur bu ma‘lumotlar elchilar orqali amalga oshirilgan shuning uchun harbr savdo yo‘lida maxsus elchillar bo‘limasi tashkil qilingan msol uchun bzga ma‘lum.

Buyuk shoh yo‘liga to‘htalsak: **Shoh yo‘li** – mil. av. 6-asrning so‘nggi choragida, Doro I hukmronligi davrida qurilgan tranzit aloqa yo‘li hisoblanadi. Mil. Avv. 1-ming yillik o‘rtalarida, Ahamaniylar davlati tarkibiga kiritilgan O‘rta Osiyoning qadimiy xalqlari va viloyatlari ham o‘sha davrning harbiysiyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida katta iz qoldirgan xalqaro aloqalar tizimida faol ishtiroq eta boshladilar. Ahamaniy hukmdorlar va mahalliy hokimlar satraplar bu aloqalarda katta o‘rin tutgan aloqa savdo yo‘llari faoliyatiga alohida e‘tibor berishgan. Yunon tarixchisi Gerodot o‘zining “Tarix” asarida bu yo‘l haqida muhim ma‘lumotlar qoldirgan. Unga ko‘ra, bu yo‘l dastlab Ahamoniylarning yirik savdo va ma‘muriy markazlaridan bo‘lgan. Suza shahrini Kichik Osiyo va O‘rta dengiz bo‘yidagi shaharlar bilan bog‘lagan. 2400 km ga cho‘zilgan bu yo‘lning har 24–25 km masofasida, ya‘ni bir kunlik yo‘lda maxsus bekatlar qurilgan. Bu bekatlarda elchilik missiyasi a‘zolari, choparlar, savdo karvonlari dam olishi uchun sharoitlar yaratilgan bo‘lib, maxsus xizmatdagi kishilar uchun doimo chopqir otlar yetarli miqdorda mavjud bo‘lgan. Shoshilinch xabar olib ketayotgan chopar bu bekatlarda otni almashtirishi yoki xabar va xatni bu bekatlardagi boshqa maxsus choparlarga berishi mumkin bo‘lgan. Shu tariqa shoshilinch xabar va ma‘lumotlar ulkan imperiyaning turli burchaklaridan poytaxt shaharga juda qisqa muddatda yetkazib berilgan.

Bundan tashqari buyuk bobokalonimiz Sohibqiron davrida ham buyuk ipak yo‘li savdosi va elchilik, po‘chta aloqa sohalariga alohida to‘xtalgan. Ya‘ni bu davrda 12000 chaqirim uzunlikdagi Buyuk Ipak yo‘li orqali ko‘plab Sharq davlatlari bilan har tomonlama aloqalar o‘rnatildi. Shuningdek, Buyuk Ipak yo‘lining O‘rtayer dengiziga chiqishi orqali g‘arbiy Yevropa davlatlari bilan ham uzviy savdo-iqtisodiy va diplomatik aloqalar o‘rnatildi. Amir Temur Buyuk Ipak yo‘lining ish faoliyatini ma‘lum bir qonun-qoidalar, uning himoyasini kafolatlovchi yangiliklar asosida shakllantirgan. Birinchi navbatda Buyuk Ipak yo‘lining bekatlari ta‘mirlangan va ba‘zi yerlarda yangilari bunyod etilgan. Yo‘llarda karvonlarning dam olishini ta‘minlovchi karvonsaroylar qurilgan. Bu karvonlarni mahalliy hokimliklar tomonidan qo‘yilgan harbiy qo‘riqchilar himoya qilib, bir manzildan ikkinchi manzilga yetkazib qo‘ygan. Buyuk Ipak yo‘lida o‘z diplomatik missiyasini bajargan Rui Gonsales de Klavixo o‘ziga va Misr elchilariga ko‘rsatilgan e‘tibor haqida alohida eslatib o‘tgan. Masalan, Misr elchilarini 20 nafarga yaqin harbiy suvoriy Samarqandga qo‘riqlab borganini yozadi. Elchilarning ot-uloqlari har kuni yangisiga almashtirib turilgan, bir kunlik masofaning so‘nggida ba‘zan 100 ta ba‘zan 200 ta yangi ot ular uchun tayyorlab turilgan. Shuningdek, tarixchi bunday otlar boshqa joylarda ham tayyorlab qo‘yilgani, Amir Temur farmoni bilan maxsus musofirxonalar barpo etilganini alohida qayd etadi. Otlarni boqib parvarishlovchi maxsus otboqarlar guruhi mavjud bo‘lgan deya eslatib o‘tgan. Ulardan bir-ikkitasi hatto karvonlar bilan ikkinchi manzilgacha hamroh sifatida borgan va o‘sha otlar bilan boshqa yo‘lovchilarni olib orqaga qaytgan. Tarixchilar o‘sha davrda yo‘llarga qo‘yilgan maxsus ustunlar haqida yozib qoldirgan. Ustunlar karvon yo‘llarining masofa o‘lchovi bo‘lib, ular har bir chaqirim yerga o‘rnatilgan. Shuningdek, ular Amir Temur davlatida yo‘llarni tez bosib o‘tish usuli joriy etilgani haqida ma‘lumot bergan. Uch kunda yetish mumkin bo‘lgan masofani ular bir kunda bosib o‘tgan. Sohibqiron Amir Temur tezlashtirilgan aloqa vositasi orqali o‘z yerlari va sarhadlarining hamma burchaklaridan bir necha kun ichida xabar olib turadi. Bu omillar o‘sha davrda o‘ziga xos axborot, kommunikatsiyalar va pochta tizimi mavjud bo‘lganligiga dalolatdir. Mahalliy hokimiyat ushbu karvonlarning harakatlanishiga javobgar bo‘lgan. Natijada karvonlarning bir manzildan ikkinchi joyga bexatar yetib borishi ta‘minlangan. Sohibqiron karvon yo‘llarida kimda-kim zarar ko‘rsa, bunday huquqbuzarliklarga javobgarlikni shu hududlarning hokim va boshqa ma‘murlariga yuklagan. Zararni amaldorlar hissasidan undirish qoidasining joriy etilishi xalqaro





savdo yo‘lidagi huquqiy kafolatlardan biri bo‘lib qolgan. Buyuk Ipak yo‘li bo‘yida joylashgan shaharlar, avvalo Samarqand Amir Temur davrida yuqori darajada ravnaq topgan. Samarqandga dunyoning barcha taraflaridan savdogarlar kelib turgan. Bu yerda do‘konu, bozorlar, hunarmandlik ustaxonalari son-sanoqsiz bo‘lib, mahalliy mahsulotlar chetga sotilgan. Sohibqiron Buyuk Ipak yo‘lini mustahkamlash orqali o‘z davlati va qo‘shni davlatlarning mudofaa va xavfsizligini ta’minlash maqsadlariga ham alohida e’tibor qaratgan. Amir Temur zamonida davlatlarning tutash mintaqalarida hozirgi bojxona vazifasini o‘tgan maskanlar barpo etilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Internet manbalari.



## XIVA – SHARQ ME’MORCHILIGINING YUKSAK NAMUNASI

**Atadjanova Saodat Egamovna**

Urganch shahar 22-son umumiy  
o‘rta ta’lim maktabi Tarix fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qadimiy shaharlaridan biri bo‘lgan Xiva shahridagi me’moriy obidalarini, shahar tarixi haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Xiva, me’moriy yodgorliklar, muzey, sayyoh, Ichan qal’a, madaniyat.

Dunyoning Qadimiy shaharlaridan biri bo‘lgan Xiva asrlar mobaynida insoniyatning ma’naviy va moddiy madaniyati taraqqiyotiga o‘zining sarmoqli hissasini qo‘shib kelmoqda. Xalqaro sayyohlik markazlardan biri sanalgan Xiva bejiz butun dunyoda ochiq osmon ostidagi muzey sifatida e’tirof etilmagan. Bu shahar hududida miloddan avvalgi VI – V asrlardan XX asr boshlarigacha bo‘lgan davrlarga ta’luqli 122 dan ortiq arxeologik yodgorliklar va me’moriy obidalar saqlanib qolgan bo‘lib Davlat muhofazasiga olindi<sup>1</sup>. Xiva shaharning qadimgi qismidagi juda ko‘p arxitektura yodgorliklariga boy bo‘lgan Ichan - Qal’a sharqning ekzotik shahar timsolini o‘zida saqlab qolgan afsonaviy shahardir. Xiva Xorazm viloyatidagi shahar. Xiva tumani markazi. O‘zbekistonning shimoli - g‘arbida, viloyatning janubida, Amudaryoning chap sohilida, daryodan 40 km janubda, 91 m balandlikda joylashgan. Shahar yonidan Polvonyop (qadimgi Xeykaniq) kanali o‘tgan. Maydoni 0,08 ming km<sup>2</sup>. Aholisi 51,2 ming kishi (2004). Xiva - O‘zbekistonning qadimgi shaharlaridan biri. Arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra, shahar mil. av. V - asrda barpo etilgan. Uning nomi shaharning qadimgi qismida joylashgan Xivaq (Xeyvaq) qudug‘i bilan bog‘liq. Ba’zi tadqiqotchilar shahar nomini xorazmiy tiliga yaqin bo‘lgan qadimgi osetin tilidagi ”Xiauv” — qal’a so‘zidan, boshqalari bu atamani antik davrdan Xiva hududidan oqib o‘tgan Xeykaniq (hozirgi Polvonyop) kanalining o‘zgartirilgan (Xeykaniq — Xeyvaniq — Xeyvaq — Xeva — Xiva) nomidan kelib chiqqan deydi. Xorazmlik tarixchi solnomachi Xudoyberdi Qo‘shmuhammad o‘zining 1831 yilda yozgan ”Dili G‘aroyib” asarida Xorazmning qadimgi shaharlarini nommanom sanar ekan, ”Bu mamlakatning yana bir qal’asi — Qal’ai Ramldir<sup>2</sup>. Bu qal’aga Som ibn Nuh asos solgan bo‘lib, u hozirgi Xivaq nomi ila mashhurdir” deydi. Xalq rivoyatlarida ham shaharning bunyod etilishi Nuh zamonlariga borib taqaladi. Bunda Nuhning o‘g‘li Som bo‘lajak shahar yoniga kelib quduq qazdirgan va shu bilan Xivaga asos solgan. Haqiqatan ham Xivaning Ichan qal’asida qadimgi Xeyvaq (Xivak) qudug‘i saqlanib qolgan. Xiva to‘g‘risidagi dastlabki ishonchli ma’lumotlar X - asrdan boshlab arab, fors tilidagi tarixiy - geografik manbalarda uchraydi. Istaxriy (930) Xivani o‘sha davrdagi eng yirik 30 ta shahar ro‘yxatiga kiritgan. U Xivani Hazoraspdan 8 farsax masofada Jurjoniya (Gurganj) yo‘lida joylashganligini qayd qiladi. Muqaddasiyning ma’lumotlariga ko‘ra esa Xiva bilan Hazoraspdan o‘rtasidagi masofa 8 dovon (10 farsax)dan iborat bo‘lgan. Xiva Yoqut Xamaviy (XIII – asr), Nizomiddin Shomiy (XIV – asr) asarlarida ham karvon yo‘lida joylashgan shahar sifatida eslatib o‘tiladi.

Xivaning qadimgi qismi — Ichan qal’ada 1200 m<sup>2</sup> bo‘lgan maydon qazib o‘rganildi. Arxeologik ashyolarning 7 m gacha chuqurlikdan topilganligi, shaharning paydo bo‘lish davri qadimiy ekanligidan dalolat beradi. Shahar tarixiy taraqqiyotining birinchi davrida Ichan qal’a o‘rnida odamlar yashay boshlagan. Arxeologik materiallarning guvohlik berishicha, bu davr mil. av. V - asrga to‘g‘ri keladi. Kulolchilik charxida tayyorlangan sopol buyumlar majmuasi, shuningdek, paxsa devor qoldiqlari shu davrga mansubdir. Mil. av. V - asr oxirida Xorazm Eronning siyosiy tazyiqidan halos bo‘lgach, Xivada shahar sistemasining asosiy elementlari shakllana boshladi. Mil. av. IV — III - asrlarda qal’a atrofi 2 qavatli qalin devor bilan o‘rab olindi. Devor oldin paxsa, uning ustiga xom g‘isht terilib, bunyod etilgan. G‘ishtlarning aksariyatiga tamg‘a bosilgan. Devor orasida (ichida) eni 2 metrli yo‘lak bo‘lgan. Devor bo‘ylab, har 22– 27 m masofada minoralar tiklangan. Devordagi minoralar to‘g‘ri burchakli bo‘lgan. Qal’a devorining butun tizimi asosiy devordan 4,4—8,5 m masofadagi qo‘shimcha to‘siq — devor bilan o‘rab chiqilgan. Devor ichi va yo‘laklardan topilgan sopol buyumlar mil. av. IV — III - asrlarga taalluqli. Bo‘yin qismi ingichka, nozik qilib ishlangan xum va xumchalarning sirtiga och pushti rangda gul naqshi solingan.

<sup>1</sup> Xiva “ Ichan- qal’ga” davlat muzey-kўriqxonasi, Xorazm Ma’mun akademiasini. Dilmurud Bobojonov, Maksudbek Abdurasulov. Xiva qadimiy utmishda va mustaqillik yillarida.

<sup>2</sup> M. Matniyozov. ”Xiva Xonligida yashagan xalqlar va ularning xonlik ijtimoiy – siyosiy ha’lida tutgan urini va r’li” “Urganch” 2004 – yil, 10-bet



Yana bir nodir topilma — ko‘zachaning sher kallasi shaklidagi dastasidir. Qadimgi qal‘a devori va yo‘laklar Xiva o‘sha davrda vohada yirik shaharlardan biri sifatida Xeykaniq (Polvonyop) kanali sohillari hamda sohilga yaqin hududlarni nazorat qilib turganligini tasdiqlovchi dalildir. Xiva dastlab agrarhunarmand shahar sifatida rivojlandi. Mil. av. II - asrda Xivaning katta qismi qum ostida qolgach, aholi shaharni tark etdi. Ichan qal‘a devorlari vayron bo‘ldi. Mil. boshlarida shaharda hayot yana tiklana boshladi. Qal‘a devorining g‘arbiy qismida ark bunyod etildi. I — III asrlarda (Kushonlar davri) Xiva Ichan qal‘a devorlari tashqarisidan qalin g‘ishtin devor bilan mustahkamlandi, natijada shahar devori qalinligi 7,5– 9 m ga yetdi. Arxeologik tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, mil. IV — V - asrlarda shaharni yana qum bosgan. VI — VIII - asrlarda Xiva qayta tiklana boshladi. Xiva hududida zamindorlarning dastlabki ko‘shklari paydo bo‘la boshladi. Ichan qal‘ada shunday ko‘shklardan 2 tasi topilgan. Shahar Xorazmshoxdar davri (XII — XIII – asr boshi) ravnaq topib, hududi kengaydi. 1220 — 1221 yillarda Xiva Chingizxon qo‘shinlari tomonidan vayron etildi. Keyinroq qayta tiklana boshladi. Hunarmandchilik (kulolchilik, koshinkorlik va b.) rivojlandi. Keyingi davrda ayniqsa, XVI — XIX - asrlarda shahar jadal taraqqiy eta bordi. Quyi Volga, O‘rta va Yaqin Sharq shaharlari bilan savdo aloqalari o‘rnatildi. Xiva XVI - asrning 2-yarmidan Xorazmning poytaxtiga aylangach, har tomonlama rivojlandi. Me‘moriy qiyofasi ham o‘zgara bordi. Shahardan o‘zaro ko‘ndalang kesishgan 2 ta katta ko‘cha va 4 darvoza (Otdarvoza, Polvondarvoza, Bog‘chadarvoza, Toshdarvoza) orqali Dishan qal‘a (rabod) ga chiqiladi. Ichan qal‘a devorining uzunligi 2200 m, balandligi 6– 8 m, tag zaminining qalinligi 5–6 m. Qal‘a to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida qurilgan bo‘lib, uzunligi 650 m, eni 400 m, jami 26 ga maydonga ega. Xivaning rabod qismi Dishan qal‘a 1842 yilda Olloqulixon davrida (1825 — 1842) baland devor bilan o‘rab olingan. O‘sha davrda Ichan qal‘ada 33 mahalla (machit qavm) va Dishan qal‘ada 34 mahalla bo‘lgan. Mahallalar nomi shu yerda yashayotgan aholining kasbkori (Chitkarlik, Elakchilik, Kulollar, Misgarlik, G‘assollar) yoki shaxs lavozimi (Otamurod qushbegi, Yoqub mehtar, Yusuf yasovulboshi) bilan atalgan. Shaharda 109 katta - kichik ko‘cha, 79 masjid va 120 qorixona bo‘lgan. Xivada XIX - asr o‘rtalarida 20 ming kishi yashagan. Shahar, asosan, XIX - asrning 2-yarmidan kengaya bordi. 1874 yilda shahar ma‘muriy jihatdan Qumyosqa, Kaptarxona, Ko‘hnbazor, Kaltaminor, Amin chorsu, Mevaston, Qoraa‘lam va Yangi qal‘a mavzellariga bo‘lingan. Xiva xonning ”mulki xolisasi” hisoblanib shaxsan uning o‘zi tomonidan boshqarilgan. XIX - asr oxiri — XX – asr boshlarida Xivada 64 Madrasa, 79 masjid bo‘lgan. 1924 yilda shaharda olingan aholi ro‘yxatida 4029 xonadonda 18145 kishi qayd qilingan. Xivaning ilk tarhi 1740 yilda chizilgan. Shahar tarhi uzunasiga 1 ming m, eniga 400 m bo‘lib, 40 ga maydonni egallagan. Uning butun tevarak atrofi suvli xandak bilan o‘rab olingan. Shaharga sharq tomondan mahsus ko‘prik orqali kirish mumkin bo‘lgan. Ko‘prik kechalari ko‘tarib qo‘yilgan. Ko‘prik yonidagi darvozadan boshlangan katta ko‘cha to‘ppato‘g‘ri Ark darvozasiga borib taqalgan. Ark shaharning g‘arbiy qismida joylashgan. Shaharning asosiy ko‘chasi uni 2 qism (shimoliy va janubiy ) ga ajratgan. Arkda xon saroyi, haramxona, aslahaxona bo‘lib, ular mahsus qal‘a devori bilan o‘ralgan. Lekin, o‘sha davrdagi ba‘zi inshootlar chizmaga kirmay qolgan. Shaharning yana bir tarhi Rossiyadan maxfiy topshiriq bilan kelgan topograf G.N.Zelenin tomonidan 1839 yilda chizilgan. Zeleninning ma‘lumotlariga ko‘ra, shaharda o‘sha davrda 17 ta masjid, 22 ta mahalla va 260 savdo rastasi bo‘lgan. Shaharning juda aniq va mukammal bo‘lgan so‘nggi tarhi 1873 yilgi rus istilosidan so‘ng rus topograflari tomonidan tuzilgan va o‘sha yiliyoq ”1873 yilgi Xiva yurishlari” maqolasiga ilova tarzida bosilgan. Me‘moriy ansamblining yaxlitligi jihatidan shahar O‘rta Osiyoda yagona hisoblanadi. 1967 yilda O‘rta Osiyoda ilk bor Xivaning Ichan qal‘a (shahriston) qismi tarixiy - me‘moriy yodgorliklar qo‘riqxonasi deb e‘lon qilindi. Shunday qilib arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan ashyoviy dalillar Ichonqal‘a hududida mil.avv VI – V asrlarda kichkina manzil mavjud bo‘lgan, keyinchalik, mil.avv. IV – III asrlarda esa Ichonqal‘a vujudga kelgan va shahr mudofaa devori bilan o‘rab olingan<sup>1</sup>.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Matniyozov.”Xiva Xonligida yashagan xalqlar va ularning xonlik ijtomoiy – siyosiy hayotida tutgan o‘rni va roli” Urganch. 2004.
2. M.Matniyozov. Xorazm tarixi. Xorazm tahriryati:Urganch 1996.

<sup>1</sup> М.Матниёзов.”Хоразм тарихи”,Хоразм тахрирати:Урганч 1996 –йил 97-98-бетлар



## XALQ AN'ANALARINING TARIXIY ILDIZLARI

**Babayeva Intizor**

Urganch tumani 3-son  
maktabning tarix fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek xalqi an'analar avloddan-ajdodga o'tishi bilan xarakterlanishi va yangi avlod o'z rivojlanishining butun jarayoniga oldingi avloddan meros bo'lib qolgan moddiy boyliklar ekanligi ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, marifiy, urf-odat, xalq pedagogikasi, dehqonchilik, hunarmandchilik, baliqchilik.

Har bir xalqning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, marifiy va madaniy rivojlanishi jarayonida xalq xo'jaligining turli sohalari bo'yicha an'analari vujudga keladi va sayqallanib boradi. An'analar keng ma'noda olinganda hozirgi davrni o'ylash va kelajak bilan uzviy bog'laydi. Ayni zamonda an'analarning mazmuni va ahamiyati har bir tarixiy davrning va xalqning ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti bilan belgilanadi. Zero, har bir an'ana paydo bo'lishi, rivojlanishi va o'zgarishi nuqtai-nazardan o'z tarixiga ega. An'analar, avvalo muhim ijtimoiy hayot voqealariga taalluqli bo'lib, unda kishilarning urf-odatlar va odob qoidalari tarixan tarkib topib boradi. An'analar avloddan-ajdodga o'tishi bilan xarakterlanadi. Yangi avlod o'z rivojlanishining butun jarayoniga oldingi avloddan meros bo'lib qolgan moddiy boyliklar, ishlab chiqarish va o'zaro munosabatlardagi, eng yaxshi tajribalardan foydalanadi, mavjud ahloq qoidalari, qonun va talablarga bo'ysunadi. Bunday meros obektiv xarakterga ega bo'lib, yangi avlodning irodasi va ongiga bog'liq emas. “Kishilar o'z tarixlarini o'zlari yaratadilar, lekin ular tarixni o'zlari istaganicha, o'zlari tanlab olgan sharoitda emas, balki bevosita mavjud bo'lgan, ularga berilgan va o'tmishdan qolgan bir sharoitda yaratadilar”.

O'tgan ajdodlardan tarbiyaga xos bo'lgan ayrim an'analar ham meros bo'lib qoladi, bu an'analar xalq bilimining muhim sohalari bilan bog'liq bo'lib, ular shartli tarzda “xalq pedagogikasi” deb nomlanadi.

Garchi xalq pedagogikasi talablari ma'lum tartibga solinib, tizimga keltirilmagan bo'lsada, ular xalqning ongiga singib ketgan bo'lib, amaliyotda faol qo'llanadi. Xalq pedagogikasi tamoyillarining ko'pchiligi ma'lum darajada va tadrijiylikda barcha oilalarda mavjuddir. Xalq pedagogikasi xalq ijodiy va ma'naviy hayotning turli sohalari, uning iqtisodiy va oilaviy munosabatlari bilan chambarchas aloqadadir. Shuning uchun uni yosh avlodni tarbiyalash bilan bog'liq bo'lgan ma'lum metodlar va davrlar tizimi mavjudki ular avloddan-avlodga o'sib borish yo'li bilan tarbiyalash an'anasi bo'lib qoladi. Shaxsning g'oyaviy-ahloqiy jihatdan shakllanishida mehnat an'analari muhim ro'l o'ynaydi. Avlodlarning vorisligi tufayli kishilarda o'z yeri va elining taqdiri uchun ma'suliyat hissi, yurtdoshlariga nisbatan mehr va ijobiy munosabatlar ham davom etadi. Ma'lumki, har bir xalqning u katta xalqmi kichik xalqmi, bundan qat'iy nazar, o'ziga xos madaniy merosi bo'ladi. Bu meros, uning paydo bo'lib shakllanishi va qaror topishiga ko'ra shu xalq tarixi, taraqqiyotining ma'lum davrini, shuningdek, muayyan xalqning shu davrdagi turmush sharoitini, xarakteri, psixologiyasini, orzu-umid va intilishlarini ham o'zida saqlaydi. Xalq tarixini o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda, shu xalqning madaniy merosi katta ro'l o'ynaydi. Bunga sharq mutafakkirlarining falsafiy qarashlarida, asarlarida e'tibor berilgan. Ammo pedagogik fikr rivojlanishini to'liq tasvirlash murakkab vazifadir. Chunki bu vazifa pedagogik fikr rivojlanishini taqozo etadigan tarixiy omillarni aniqlash asosidagina ijobiy hal qilish mumkin.

O'rta Osiyoning buyuk mutafakkirlari Al-Xorazimiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Al-Farg'oniy va boshqalarning ko'plab asarlarida O'zbeklar va boshqa O'rta Osiyolik xalqlarning bevosita ajdodlari, ularning ma'ishiy turmushi va madaniyatining tarixiy va etnografik jihatlari xususida qimmatli ma'lumotlar mavjudki, ular tadqiqotchilarimiz uchun bevosita manba bo'lib hisoblanadi va xizmat qiladi. Xalqning xo'jalik faoliyati va mashg'uloti ayniqsa, chorvachilik va dehqonchilik, hunarmandchilik, baliqchilik va ovchilik bo'lgan. Masalan: Dehqonchilik yerga ishlov berish usuliga ko'ra bir necha xil kabilar, chorvachilik ham har xil tarmoqlarga ajratiladi. Hunarmandchilikning juda ko'p tarmoqlari bo'lib, ular turli etnoslarga xos maxsus atamalar bilan qo'llangan. Etnosshunos olimlar fikricha, o'zbek millatining shakllanishi eramizdan avvalgi 3 ming yillikning o'rtalaridan boshlab, butun antik davr mobaynida etnik ildizi, xo'jalik madaniy





va turmush tarzi bir zamindagi hozirgi O'zbekiston hududida yashaydigan yevropaid aholi bilan sekin-asta sharqdan ko'chib kela boshlagan mongloid irqiy elementlarning qo'shilib ketishi natijasida yuzaga kelgan etnik jarayon bilan bevosita bog'liq bo'lgan.

Tarixiy taraqqiyotning o'ziga xos turmush sharoitida shakllanib qaror topgan tushunchalar ham, odamlar orasida mavjud bo'lgan har qanday urf-odatlar, marosimlar ham, shuningdek, o'zaro muomila munosabatlari ham davrlar o'tishi bilan tabiiy ravishda mazmunan va shaklan o'zgarib, rivojlanib boradi. Bu qonuniy xodisadir. Chunki olamdagi hamma narsalar va xodisalar kishilarning ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan obektiv qonuniyat asosida harakat qiladi, o'zgaradi va rivojlanadi. Qadimgi o'zbek xalqi o'z hunarmandchiligi bilan ma'lumu-mashhur bo'lgan. Samarqand, Buxoro, Shaxrisabiz, Xiva, shaharlaridagi memoriy yodgorliklari, o'zbek kashtado'zlari, duradgorlari, chinnisozlari tomonidan yaratilgan buyumlar xalq milliy hunarmandchiligi beqiyos darajada bo'lganidan dalolat beradi. Yozma manbalarda keltirilgan ma'lumotlar hamda arxeologik tadqiqotlarda Shosh viloyati va uning poytaxti Toshkent ayniqsa X-XI asrlarda ravnaq topganidan dalolat beradi. Shahar o'sha davrda viloyatning yirik hunarmandchilik va savdo markaziga aylangan.

Bu davrda Toshkentdan qurol-yaroq, yog'ochdan tayyorlangan asbob-uskunalar, egarjabduqlar, ip va ipak gazlamalar, joynamoz va choyshablar, nina va pichoqlar, ustki kiyimlar, poyabazallar, chodirlar va boshqa hunarmandchilik mahsulotlari hamda uzoq mamlakatlardan keltiriladigan savdo mollari chet ellarda, jumladan Qozog'istonda chiqarilgan. Faqat Buxoroning o'zida o'nlab hunarmandlar mahallalari bo'lgan, ularda turli avlod hunarmandlari yashagan xususan, kulollar, to'quvchilar, temirchilar, kulolsozlar, sotuvchilar, pichoqchilar, duradgorlar, quruvchilar mahallari bo'lgan. Har bir mahallada o'nlab ustalar bo'lib, ular o'z yordamchilariga ega bo'lishgan. Mustamlaka davrda, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishini qishloqda dehqonchilik shaharlarda esa kasb-hunarmandchilik va kapitalistik sanoatini rivojlanishi natijasida ilgari Movorounnahr turklari bilan ko'chmanchi o'zbeklarning asosiy qismi dehqonchilik va hunarmandchilik bilan mashg'ul bo'la boshlaydilar.

Yosh avlodni tarbiyalashning eng muhim yo'nalishi ularga xalq tajribasini o'rgatishdan iborat bo'lib, shuning uchun bolalarni oilada tarbiyalashda ularga yerga, atrof, tabiatga muhabbat hissini vujudga keltirishni shakllatirish va rivojlantirishga jiddiy e'tibor berilgan. Bularning barchasi, xususan, terini ishlashga, hunarmanchilikka, yerdan mo'l hosil olish sirlarini bilishga, undan, o'zbek xalqining bolalari doimo chorvachilikka yaqin bo'lgani va hayvonlarning qanday boqilishini ko'rib borgani sababi ularda barcha jonivorlarga g'amxo'rlik va muhabbat hislari rivojlangan. Dehqonlarning bolalari kichikligidan boshlab, ekinlarni sug'orish, parvarishlash va qishloq xo'jalik ishlarining boshqa turlarida ota-onalariga, akalari va opalariga ko'maklashgan, shuningdek qo'llaridan keladigan hunarmandchilik ishlarida qatnashganlar. Kattaroq bo'lganlaridan keyin qiyonroq ishlarni bajara boshlaganlar. O'zbek xalqi oilalarida bolalarni tarbiyalashning asosiy yo'nalishi xalqning o'z farzandlarini haqiqiy insonlar, aqlli sahovatli, mehnatsevar kishilar qilib, kamol toptirish uchun an'anaviy intilishiga asoslangan. Tarbiyachi xalq o'zi aslida ularning ana shunday, insonlar bo'lib ulug'lay qolmay balki, sharaflay olish uchun zarur bo'lgan hamma tadbirlarni amalga oshirgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sh. Qurbonov va boshqalar. “Barkamol avlod orzusi”. T.; Sharq. 1998 yil 144 b.
2. J. Tulenov “Qadriyatlar falsafasi”. T. 1997 yil. 223 b



**TARIX DARSLARINI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK  
TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. O'QUVCHILAR  
BILAN INDIVIDUAL SHUG'ULLANISHNING AHAMIYATI**

**Gofurova Farida Toxir qizi**  
Namangan Chust shahar  
1-maktab tarix o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarix darslarini tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish hamda o'quvchilar bilan individual shug'ullanishning samarali jihatlari haqida fikrlar bildiriladi.

**Kalit so'zlar:** Innovatsiya, interfaol, ta'limni individuallashtirish, pedagogik mahorat.

Shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi larni faqat tayyor bilimlarni egalashga o'rgatib kelingandi. Bunday usul o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so'ndirar edi. Endi o'quv jarayonini yangilangan dastur va standart talablariga javob beradigan zamonaviy darslar asosida tashkil etish davri keldi.

Boshqacha qilib aytganda, zerikarli darslar o'rniga darslarni tashkil etishga ma'suliyat bilan yondashdigan, kasbiy bilimdon, metodik mahoratga ega, ma'suliyatli, zamonaviy, interfaol pedagogik texnologiyani mukammal o'zlashtirib olgan, innovatsiyalar asosida ta'limni tashkil eta oladigan o'qituvchilarga talab oshib bormoqda.

Innovatsiya (inglizcha innovation)-yangilik kiritish, yangilik demakdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

Interfaol (“Inter”- bu o'zaro, ”ast”- harakat qilmoq) - o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishni anglatadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, o'qitishning interfaol uslubiyatlari - bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchining o'zni qisman o'quvchilarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi. Bu uslublarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga:

-o'quvchining dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi;

- o'quvchilarning o'quv jarayonida fanga bo'lgan qiziqishlarini doimiyligini ta'minlanishi;

- o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi ;

- pedagog va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etishlari mumkin.

Ushbu metodga amalga oshirish orqali o'quvchilarni darsni o'zlashtirish darajasini ham ancha oshirishga erishish imkoni paydo bo'ladi.

Bundan tashqari yodda saqlash kerakki, har qanday ta'lim o'quvchi shaxsiga, uning qiziqish, xohish istagiga, ehtiyojiga qaratilmog'i kerak. Ya'ni ta'limni individuallashtirishga qaratilmog'i talab etiladi.

Endi ta'limni individuallashtirish nima? Degan savolga javob beraylik:

- ta'lim jarayonini individuallashtirish shunday o'qitish usuliki, bunda har bir o'quvchi o'quv jarayonida faol ishtirok etib, o'quv-biluv jarayoniga shaxsiy hissa qo'shishi hisobga olinadi;

- ta'lim jarayonini tashkil eishda o'qituvchining uslubiy yondashuvi, tezkorligi, o'quvchining shaxsiy xususiyatlari hisobga olinadi;

- o'quv-metodik, psixologik, pedagogik tashkiliy boshqaruv ishlarini olib borishda o'quvchi shaxsi o'quv-biluv markazida bo'ladi.

Har qanday ta'lim o'quvchi shaxsiga, uning qiziqish, xohish istagiga, ehtiyojiga qaratilmog'i kerak. Ya'ni ta'limni individuallashtirishga qaratilmog'i talab etiladi.

Endi ta'limni individuallashtirish nima? Degan savolga javob beraylik:

- ta'lim jarayonini individuallashtirish shunday o'qitish usuliki, bunda har bir o'quvchi o'quv



jarayonida faol ishtirok etib, o`quv-biluv jarayoniga shaxsiy hissa qo`shishi hisobga olinadi;

- ta`lim jarayonini tashkil eishda o`qituvchining uslubiy yondashuvi, tezkorligi, o`quvchining shaxsiy xususiyatlari hisobga olinadi;

- o`quv-metodik, psixologik, pedagogik tashkiliy boshqaruv ishlarini olib borishda o`quvchi shaxsi o`quv-biluv markazida bo`ladi.

Demak, ta`lim-tarbiya sifati va samaradorligi o`quvchining o`quv mazmunini o`zlashtirishga yo`naltirilgan mustaqil mutolaa bilan samarali shug`ullanishi mustaqil fikr yuritishi va tafakkur faoliyati bilan bog`lik. Interfaol metodlarda dars jarayonini olib borishda o`quvchilarda quyidagi xususiyatlarning rivojlanishini ko`rsatish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. F.Sh.Aqchayev “Tarixni o`qitishda innovatsion texnologiyalar” - JIZZAX - 2014 y.
2. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta`lim samaradorligini oshirish yo`llari. - T., Nizomiy nomidagi TDPU, 2009.
3. A.Abduqodirov, R.Ishmuhammedov. “Ta`limda innovatsion texnologiyalar” T.:2008



## TOXARISTON YABG'ULIGINING BOSHQARUV MARKAZLARI

Matyaqubov Yaxshimurod Sobiryozi o'g'li  
Urganch davlat universiteti Tarix fakulteti talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Toxaristondagi boshqaruv tizimi, boshqaruv markazlarining faoliyati haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** boshqaruv, hokimiyat, yabg'u, Toxariston, noib, poytaxt, kentum guruhlar.

Kushon saltanati (mil.avv II-mil.III asrlarda) o'z tayanch hududi sifatida Baqtriyani tanlagach, Kushonlardan so'ng Xioniyalar, Kidariylar, Eftallar ham o'z boshqaruv markazlarini Baktriya (bu davrda Toxariston) hududida tashkil etib, bu udumni davom ettirishgan. 580-yillardan boshlab Baqtriya-Toxariston hududi Turk xoqonligi tarkibiga kirgan paytda ham Toxariston yabg'ularining boshqaruv markazi oldin Qunduz, keyin esa Balx va Badaxshon shaharlari bo'lgan. Ana shu boshqaruv markazlari haqida so'z yuritishdan oldin Toxaristondagi etnosiyosiy jarayonlarga qisqacha to'xtalib o'tish kerak.

Sharqiy Turkistonning Turfon, Qorashahar va Kucha kabi voha hukmdorliklaridagi shahar aholisining kata qismini qadimgi hind-yevropa xalqlari tillari oilasiga mansub toxarlar tashkil qilgan. Bu hududlar o'sha davrda “to'rt Toxar o'lkasi” deb atalar edi<sup>1</sup>. Tyanshan tog'larining janubi-sharqiy qismida yashagan Toxarlar Markaziy Tyanshanning shimoliy etaklarida yashab kelgan turkiy etnoslar bilan qadimdan uzviy aloqalarni yo'lga qo'ngan edi. Keyinchalik qadimgi Baqtriya hududida Yuechji qabilalari tamonidan asos solingan Kushon saltanati boshqaruv xonadoni a'zolari etnik qiyofasida, boshqaruv an'analari, unvonlari, hukmdor ismlari va h.k.larda turkiy va toxar elementlarining ustuvorlik qilishi ana shu aloqalar bilan bog'liq. O'rta asrlarga kelib toxarlar asosan turkiy xalqlar tarkibiga singib ketishgan. Biroq ulardan qolgan yozma yodgorliklar hind-yevropa til oilasining kentum guruhlariga<sup>2</sup> oidligi aniqlanib, ular shartli ravishda “A lahjasi” (Qorashar-Turfon) va “B lahjasi” (kucha) deb nomlanuvchi ikki lahjaga bo'lingan<sup>3</sup>.

“Toxar” etnonimidan kelib chiqqan Toxariston nomi ostida o'rta asrlarda tor ma'noda Amudaryoning janubidagi hududlar, Badaxshon va Balx oralig'idagi o'lkalar tushunilgan bo'lsa, keng ma'noda qadimgi Baqtriya-Toxaristonning barcha hududi, ya'ni Amudaryoning butun havzasi, daryoning janubidan to Hindiqush tog'larigacha bo'lgan hududlar tushunilgan.

V-VI asrlarning birinchi yarimida eftalitlar qo'lida bo'lgan Toxariston 563 yoki 567 yillarda turklar tamonidan yengilgan eftalitlardan Sosoniylar Eroni qo'l ostiga o'tadi. “Tan-shu” yilnomasida Toxariston yabg'ularining Ashina urug'idan kelib chiqqanligi qayd etilgan. Aniqrog'i, bu yerdagi hukmdorlarning kelib chiqishi Istaming o'g'li Tardu xoqon (576-603) nomi bilan bog'lanadi. Tardu xoqon VI asrning oxirgi choragida unvonli o'g'lini bu yerni boshqarish uchun tayinlaydi<sup>4</sup>.

Keyinroq Tun Yabg'u-xoqon (618-630) boshchilikdagi turk qo'shini Xuroson, Zobuliston, Qobul, Gandxar, Gibin (Peshovar) va Sind o'lkalarini egallagach, u yerdagi eng muhim shaharlarni o'ziga bo'ysundirib, eftalitlar sulolasini turk hukmdorlari bilan almashtiradi. O'g'li Tardushodni esa Toxariston boshqaruviga tayinlaydi<sup>5</sup>. Bu voqea Tun yabg'u xoqonning o'g'li Tardu shod tamonidan “Shuxrating ko'paysin, hukmdorlar hukmdori yabg'usi” jumalari bitilgan nishon zarb qilish orqali nishonlangan<sup>6</sup>. Xullas, 580-yillarda Amudaryoning yuqori havzasi, Xisor va Hindiqush tog'lari oralig'idagi hududni qamrab olgan hamda Termiz, Chog'oniyon, Shuman, Axarun, Vashgird, Rasht, Kumed, Pomir, Xuttal, Vaxsh, Qo'bodiyon, Qarro'n, Shug'non, Voxon, Badaxshon, Guzmanon (Juzjon), G'archiston kabi viloyat va tumanlardan tarkib topgan Toxariston o'lkasi xoqonlikning janubi-sharqdagi eng chekka qismlaridan biriga aylanadi.

<sup>1</sup> Камалиддинов Ш.С. Историческая география Тохаристана и Южного Согда по арабоязычным источникам IX – нач. XIII вв. Ташкент, 1996. – С. 51, 261.

<sup>2</sup> Kentum guruhi – s'uz bo'shida s- undoshi bilan bo'shlanaidigan s'uzlar urnida k- undoshi ishlatiladigan tillar guruhi. Hind-evropa til oilasiga mansub tillar asosan kentum va sentum guruhlariga b'ulnadi.

<sup>3</sup> Toxarskie yazyki. M., 1959.

<sup>4</sup> Бобоёров Ф.Б. Марказий Осиёда VI–VIII асрларнинг 2-ярмидаги ... – 5-6-бетлар.

<sup>5</sup> Бобоёров Ф.Б. Марказий Осиёда VI–VIII асрларнинг 2-ярмидаги сиёсий-этниқ жараёнлар (Ўрхун-Энасой ёзувидаги манбалар асосида): Тарих фан. номзод. ... дисс. Тошкент, 2003. – 84-85-бетлар.

<sup>6</sup> Бобоёров Ф.Б. Марказий Осиёда VI–VIII асрларнинг 2-ярмидаги сиёсий-этниқ жараёнлар (Ўрхун-Энасой ёзувидаги манбалар асосида): Тарих фан. номзод. ... дисс. Тошкент, 2003. – 84-85-бетлар.



Shu bilan birga, Toxariston siyosiy strategik jihatdan muhim ahamiyatga ega hudud bo`lgan. Chunki u bir tamondan Hindistonga qochib ketgan Eftalitlar sulolasi bilan chegara hudud sanalgan. Shu sababli bo`lsa kerak, Xitoy manbalarida Toxariston qo`shini 100 ming kishidan iborat ekanligi, xususan, faqat Xuttalning o`zida 50 ming askar mavjudligi qayd qilingan<sup>1</sup>.

Toxaristonda turk hukmdori qayerda turib hududni boshqargan? Bilamizki, Qunduz va Balx shaharlari eftalitlarning siyosiy markazlari bo`lgan. Turk xoqonlari ilk yillardayoq bu yerda o`z noiblarini joylashtira boshlaydilar. ‘Toxariston yabg`usining o`z-o`zini boshqaruvchi’ qaram yerning poytaxti birinchi Qunduz yaqinida edi<sup>2</sup>. Bu haqda Xitoylik rohib Chjan Syuan-szan shunday yozadi:

“Bir necha 100 li masofa bosib o`tilgach, O`kuz daryosidan o`tib Qunduz podsholikiga keldik. Bu joy Tun yabg`u xoqonning kata o`g`li Datuning poytaxti. U Toxaristondagi kichik o`lkalar ustidan nazorat qiladi”<sup>3</sup>. Chunki Shimoliy Hindistonning Gandxara, Peshovar, Udabandapur, Udyana, Lampaka, Kapisa kabi tarixiy viloyatlarini o`z ichiga olgan Qobuliston 630 yillargacha Toxariston yabg`uligi vositasida boshqarilgan. 660 yillar atrofida bu yerda Teginshohlar yoki Qobulshohlar deb atalgan turkey sulola tashkil topib, u IX asr o`rtalarigacha hukm surgan. Istaxriy Toxaristonning chegaralarini ko`rsata turib, poytaxt Talekon/Tayekandan tashqari eng muhim shaharlar qatoriga Varvaliz va Anderabni ham kiritgan. Bu davrda Toxaristonda budda dini keng tarqalgan bo`lib, turk yabg`ulari bu dinni qabul qilganlar va uni qo`llab-quvvatlaganlar. Xususan, xitoy va arab-fors manbalarida Toxariston hukmdorlari o`lkaning bir qancha shaharlarida budda ibodatxonalarini qurdirishgani haqida ma`lumotlar uchraydi. Jumladan, Syuan-szan birgina Balxning o`zida 100ga yaqin budda ibodatxonasi borligini qayd qilgan<sup>4</sup>. Aslida buddaviylik Kushonlar davridayoq, xatto, undan birmuncha oldinroq ham bu hududlarda keng tarqalgan edi. Shuning uchun Toxaristondagi Kushonlar davriga oid ko`pgina budda ibodatxonalarini qayta tiklash va VI-VII asrlarda yangilarini qurish bevosita turklar bilan aloqalidir. Arxeologlar VII-VIII asrlarga tegishli budda yodgorliklariga Ajina-tepa monastiri, Ushtur-Mulla majmuasi, Qalāi-Kofirniq`on shahar harobasidagi ibodatxona kabi yodgorliklarni kiritishgan. Shuningdek, Quvadagi budda ibodatxonasi (VI-VIII asrlar)ning qurilishi va faoliyat ko`rsatishini ham ayrim tadqiqodchilar Turk xoqonligi bilan bog`laydilar<sup>5</sup>. 661-yili tan sulolasi Toxar mamlakatida garnizon tashkil etadi va Xo`tonning g`arbidan Sosoniylarning sharqigacha 16 mamlakatni o`z boshqaruviga olgan. Tardu shod o`z xotini tamonidan zaxarlab o`ldirilgach, uning o`g`li Ishbara yabg`u turk hukmdorlari orasida birinchi bo`lib tanga zarb ettirgan. U o`z hukmronligi mobaynida Toxaristonning g`arbiy qismidagi Xusp, Xirotda va Shiburg`on shaharlarida tanga zarb qildirgan<sup>6</sup>.

Umuman, yozma manbalardagi va VI-VIII asrlarga irod Toxariston tangalaridan ma`lum bo`lishicha, bu yerdagi shahar va viloyat hokimlarining ko`pchiligi turklardan bo`lgan. Aynan shu davrdan Toxaristonga turklarning ommaviy ko`chib kelishi va o`troqlasha boshlagani kuzatiladi. O`troqlashgan turklarning asosiy qismini Turk xoqonligi tashkil topishidan oldin bu yerlarda o`rnashib qolgan Qarluq va Xalajlar tashkil etgan<sup>7</sup>. Ko`pchilik olimlar o`rta asrlarda Afg`oniston hududida yashagan Xalaj turklarini eftaliylarni keying avlodi sifatida qaraydilar<sup>8</sup>. Turkolog Г. Дёрффер bugunda Eronda yashovchi kam sonli etnik guruxlardan biri bo`lmish xalajlar tilining arxaik bir turkiy til ekanini va ushbu tilning Turk xoqonligi davrida rasmiy til sifatida qo`llanilgan O`rxun-Enasoy bitiktoshlari tiliga yaqinligini isbotlab bergan<sup>9</sup>. Bu esa eftalitlarning kimligi

<sup>1</sup> Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. М.-Л., 1953. Т. 2. – С. 321.

<sup>2</sup> Камалиддинов Ш.С. Историческая география Тохаристана ... – С. 195-196, 204-205.

<sup>3</sup> Notes on Hwen Thsang's account of Principalities of Tokharistan. By colonel H. Yule, C. B. London, 1872. – P. 8; Beal S. The life of Hiuan Tsiang. New delhi, 1990. – P. 47.

<sup>4</sup> Beal S. Si-Yu-Ki. Buddhist Records of the Western World. London, 1884. Vol. I. – P. 44; Beal S. The life of Hiuan Tsiang ... – P. 49.

<sup>5</sup> Булатова-Левина В.А. Буддийский храм в Куве // Советская археология, № 3. Москва, 1961. – С. 241-250.

<sup>6</sup> Harmatta J., Litvinsky B.A. Toharistan and Gandhara under Western Turk rule // History of Civilizations of Central Asia. Vol. 3, Paris 1996. – P. 369-371.

<sup>7</sup> Камалиддинов Ш.С. Историческая география Тохаристана ... – С. 261; Минорский, 1937, 347 бетга қаранг. Цегледу, 1984, 216.

<sup>8</sup> Бартольд 3: 344, 514-515.

<sup>9</sup> Doerfer, 1987:410-420; Dani A. H., Litvinsky B. A., Zamir Safi M. Eastern Kushans, Kidarites in Gandhara and Kashmir, and Later Hephthalites // History of Civilizations of Central Asia. Vol. 3. Paris, 1996. P. 81.





masalasining yanada chuqurroq tadqiq etilishini talab qiladi. Aniqrog`i, Turklar IV-V asrlardayoq Yuechji-Kushonlar davridayoq xionit va eftaliylar bilan birga Toxaristonga kata miqdorda kelib joylashib qolganlar<sup>1</sup>. Xitoy rohibi Xuey Chao (723-729)ga ko`ra, Toxaristonning eng muhim hukmdorliklaridan biri, hozirgi Tojikistonning janubida joylashgan Xuttal aholisining tili qisman toxar, qisman turkiy va qisman mahalliy tildan iborat edi.<sup>2</sup> VIII asrning boshlarida tarixchi Tabariy Balx aholisining yangi fors tilidan kuylashda foydalanishganini yozib qoldirgan. Shunga ko`ra, “uchinchi”, Xuey Chaoga ko`ra esa “mahalliy” til toxarcha va turkchadan shakllangan Toxaristonda yangi bir yo`nalish edi. Bu esa forsiy doriy tilning juda erta VI-VII asrlarda foydalanish uchun mavjud bo`lganini ko`rsatadi<sup>3</sup>. Qolaversa, Xuey Chao Gandxara, Kapisa va Zobuliston hukmdorlari va ularning qo`shini ham turklardan ekanligini takidlaydi. 750 yillarda bu yerlarga sayohat qilgan va “uning sharqiy poytaxti Gandxara bo`lgan Kapisa davlati bor. Hukmdor qishda bu yerda qishlaydi va yozda Gandxarada yashaydi”<sup>4</sup> deb axborot bergan xitoylik buddaviy sayyoh.

Xitoy yilnomalari “Vey-shu” va “Bey-shida” yozilishicha, “Bu mamlakatda 60 li kenglikdagi Bo-ti (Balx) shahri bor. Shaharning janubidan g`arbga to`g`ri oquvchi Xon-lou daryosi nomli bir daryo bordir”.

“Suy-shu”da esa Tuxolo mamlakati Pomir tog`ining 500 li g`arbidadir. Ye-da (Eftalit)lar bilan qorishiq holda yashaydilar. Poytaxtining aylanasi 2 li atrofida. Bu tasvirlar Syuan-szyan keltirganchalik ochiq emas. Islom davrida Toxariston keng ma`noda Amudaryoning yuqori havzalarining o`ng va chap qirg`oqlarida bo`lgan va Balxga qaram bo`lgan butun tog`lik mamlakatlarni o`z ichiga olgan. Tor ma`noda esa Toxariston Balxning sharqi, Badaxshonning g`arbi, Amudaryoning janubi va Hindiqush tog`ining shimoliy hududlarini qamrab olardi<sup>5</sup>. VIII asrdan boshlab bir mamlakat nomi o`laroq Toxariston qo`llanilmagani kabi, Tan sulolasidan keyin Xitoy yilnomalarida ham uchramaydi.

Xitoy yilnomalarida “Tan-shu” da takidlanishicha, Toxaristonning Afg`oniston qismida, uning janubi-g`arbida toxarlar bilan birga turklar ham yashaganlar. Tarixchi Tabariyning bergan ma`lumotlarida Toxariston podsholari yabg`u unvoni bilan atalgan. Mutaxassislar Xitoy sayyohlari asarlari va “Tan-shu” yilnomasida qayd qilingan turklarning ko`pchiligi qarluqlar bo`lishi extimolini ilgari suradilar<sup>6</sup>.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Камалиддинов Ш.С. Историческая география Тохаристана и Южного Согда по арабоязычным источникам IX – нач. XIII вв. Ташкент, 1996.
2. Тохарские языки. М., 1959.
3. Бобоёров Ф.Б. Марказий Осиёда VI–VIII асрларнинг 2-ярмидаги сиёсий-этник жараёнлар (Ўрхун-Энасой ёзувидаги манбалар асосида): Тарих фан. номзод. ... дисс. Тошкент, 2003.
4. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. М.-Л., 1953.
5. Notes on Hwen Thsang's account of Principalities of Tokharistan. By coloned H. Yule, C. B. London, 1872. – P. 8; Beal S. The life of Hiuan Tsiang. New delhi, 1990.
6. Булатова-Левина В.А. Буддийский храм в Куве // Советская археология, № 3. Москва, 1961.
7. Шониёзов К.Ш. Қарлуқ давлати ва қарлуқлар. Тошкент, 1999.

<sup>1</sup> Камалиддинов Ш.С. Историческая география Тохаристана ... – С. 261.

<sup>2</sup> Fuchs, 1938. – P. 452.

<sup>3</sup> Harmatta J., Litvinsky B.A. Toharistan and Gandhara ... – P.

<sup>4</sup> Levi and Chavannes, 1895, pp. 349-357.

<sup>5</sup> Бартольд 3: 344, 514-515.

<sup>6</sup> Шониёзов К.Ш. Қарлуқ давлати ва қарлуқлар. Тошкент, 1999. – 24-25-бетлар.



## XOTIN-QIZLAR O‘RTASIDAGI HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTİKASINING TASHKILIY ASOSLARI

**O‘ktamova Shoxida**  
O‘zbekiston Respublikasi  
IIV Akademiyasi  
3-bosqich kursanti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada xotin-qizlar o‘rtasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasining tashkiliy asoslari, profilaktika xizmatlarining ayollar o‘rtasidagi huquqbuzarlikga qarshi kurash va uning oldini olish faoliyatini tashkil etishni belgilab beruvchi huquqiy asoslarini yo‘nalish va guruhlarlari to‘g‘risida ma‘lumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** xotin-qizlar o‘rtasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasi, huquqbuzarlikka qarshi kurashish, profilaktika xizmatlari, profilaktor – tadbirlar.

Ma‘lumki, har bir huquqiy faoliyat, munosabat huquqiy normalar orqali tartibga solinadi. Huquq nazariyasida esa, huquqiy tartibga solish huquqiy vositalar yordamida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, qo‘riqlash, ularni jamiyatning ijtimoiy ehtiyojiga muvofiq ravishda rivojlantirish maqsadida muntazam, normativ ta‘sir etish jarayoni tushuniladi. Huquqiy tartibga solish ijtimoiy munosabat sub‘ektlarining yuridik huquq va majburiyatlarini belgilab, ularning bajarilishini ta‘minlaydi. Bir qator olimlar jamiyatda huquqbuzarlikka qarshi kurashish, uning oldini olishning huquqiy tartibga solinishini quyidagi ikki yo‘nalishda olib borilishini ta‘kidlashadi:

Birinchi yo‘nalish – bu huquq normalari yordamida huquqbuzarlikning sabab va sharoitlariga, huquqbuzarliklarning sodir qilinishiga imkon beruvchi jamiyat ijtimoiy hayotining barcha sohalaridagi salbiy voqea, hodisa va jarayonlarga ta‘sir qilishi orqali ularni kuchsizlantirish, bartaraf etish va unga qarshi kurashish uchun sharoitlar yaratish;

Ikkinchi yo‘nalish – huquqbuzarliklarning oldini olish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish tartibini o‘rnatish hamda aniq profilaktor – tadbirlarni amalga oshirishni huquqiy tartibga solishdir.

Ta‘kidlash joizki, bu yo‘nalishlar o‘rtasidagi farqlar shartli bo‘lib, ular bir – biri bilan uzviy bog‘liqdir.

Aytish joizki, har bir faoliyatning huquqiy tartibga solinganligi, birinchidan, uni tashkil etish tartibini mustahkamlasa, ikkinchidan, hamkorlik bo‘yicha sub‘ektlar faoliyatining asosiy vazifalarini belgilab, ularning ma‘suliyatini oshirishga hamda hamkorligini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda profilaktika xizmatlarining ayollar o‘rtasidagi huquqbuzarlikga qarshi kurash va uning oldini olish faoliyatini tashkil etishni belgilab beruvchi yagona huquqiy asos mavjud emas. Biroq profilaktika xizmatlarining ayollar o‘rtasidagi huquqbuzarlikga qarshi kurash va uning oldini olish faoliyatini tashkil etishni belgilab beruvchi alohida huquqiy asoslar yaratilgan bo‘lib, ularni bir nechta guruhlarga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq.

Birinchi guruh huquqiy asoslarga konstitutsiyaviy normalarni kiritish mumkin. Jumladan, Konstitutsiyaning normalari demokratik jamiyatdagi barcha munosabatlarni ijtimoiy adolat va insonparvarlik prinsiplariga asoslangan holda tartibga solishning birlamchi asosiy manbai sifatida xizmat qilishi bilan har qanday huquqqa xilof qilmishning oldini olishni ta‘minlaydi. SHuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir qator qoidalari bevosita huquqbuzarliklarning oldini olish xususyatiga ega bo‘lib, fuqarolarni har xil turdagi jinoiy tajovuzlardan himoya qilishda va ularni jamiyatdagi umuminsoniy, axloqiy normalar asosidatarbiyalashdamanba hisoblanadi. Mazkur normalar profilaktika xizmatlarining ayollar o‘rtasidagi huquqbuzarlikga qarshi kurash va uning oldini olish faoliyatini tashkil etishni tartibga soluvchi normalar va ularni qo‘llash amaliyoti tahlilini belgilab beradi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 121-moddasida: «qonuniylik va huquq – tartibotni, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jamoat tashkilotlari va fuqarolar yordam ko‘rsatishlari mumkin», degan qoida belgilangan bo‘lib, mazkur norma profilaktika xizmatlarining ayollar o‘rtasidagi huquqbuzarlikga qarshi kurash va uning oldini olish faoliyatini tashkil etishni tartibga soluvchi normalar va ularni qo‘llash amaliyoti tahlilini belgilab beradi.

Ikkinchi guruh huquqiy asoslarga O‘zbekiston Respublikasining qonunlarini keltirish



mumkin. Profilaktika xizmatlarining ayollar oʻrtasidagi huquqbuzarlikga qarshi kurash va uning oldini olish faoliyatini tashkil etishni tartibga soluvchi normalar va ularni qoʻllash amaliyoti tahliliga doir aniq bir qonun yoki qonunosti hujjat boʻlmasada, ayrim qonunlarda ayollar oʻrtasidagi huquqbuzarlikka qarshi kurash va uning oldini olish faoliyatini tashkil etish yonalishini belgilab beruvchi normalar mavjud.

Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 2-moddasida keltirilgan shaxsni, uning huquqlari va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, taʼbiy muhitni, tinchlikni, inson xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan muhofaza etish, huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolarni Respublika konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalash toʻgʻrisidagi asosiy vazifalari profilaktika xizmatlarining ayollar oʻrtasidagi huquqbuzarlikga qarshi kurash va uning oldini olish faoliyatini tashkil etishni tartibga soluvchi normalar va ularni qoʻllash amaliyoti tahlilida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur kodeksning Maxsus qismidagi barcha normalar huquqbuzarlikka qarshi kurashish va ularning oldini olishga qaratilgan.

Oʻzbekiston Respublikasi Huquqbuzarlik – protsessual kodeksining 2-moddasida uning vazifalari keltirilgan boʻlib, mazkur kodeksining asosiy vazifalaridan biri huquqbuzarliklarning oldini olish hisoblanadi. Uning bir qator normalari bevosita profilaktika xizmatlarining ayollar oʻrtasidagi huquqbuzarlikga qarshi kurash va uning oldini olish faoliyatini tashkil etishni tartibga soluvchi normalar va ularni qoʻllash amaliyoti tahlilini belgilab beradi. Jumladan, 296-moddada jinoyat ishiniyuritishda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud huquqbuzarlikning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon berayotgan shart – sharoitlarni aniqlash shart ekanligi, 297-moddada jinoyatchilikning sabablari va uning sodir etilishiga imkon berayotgan shart – sharoitlarni bartaraf qilish toʻgʻrisida surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning taqdimnomasi asos boʻlishi, 299-moddada taqdimnoma va xususiy ajrimlarni bajarish majburiyatlari, 300-moddada fuqaroning ijtimoiy burchini namunali bajarganligi toʻgʻrisidagi taqdimnoma va xususiy ajrim toʻgʻrisidagi qoidalar belgilangan.

Oʻzbekiston Respublikasining «Terrorizmga qarshi kurash toʻgʻrisida»gi 2000-yil 15-dekabr qonuni profilaktika xizmatlarining terrorizmga qarshi kurashish, xususan uning oldini olish boʻyicha faoliyatini tartibga soluvchi manba boʻlib hisoblanadi. Qonunning 5-moddasida terrorchilik faoliyatining oldini olish davlat organlari, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari hamda jamoat birlashmalari, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlar tomonidan siyosiy, ijtimoiy – iqtisodiy, huquqiy va boshqa profilaktik choralar majmuini qoʻllash orqali amalga oshiradi, deb belgilangan.

Oʻzbekiston Respublikasining «Odam savdosiga qarshi kurashish toʻgʻrisida»gi 2008-yil 17-aprel qonunining 7-moddasida ichki ishlar organlari, jumladan, profilaktika xizmatlarining ayollar oʻrtasidagi huquqbuzarlikga qarshi kurash va uning oldini olish faoliyatini tashkil etishni tartibga soluvchi normalar va ularni qoʻllash amaliyoti tahlili natijasida odam savdosi bilan shugʻullanuvchi shaxslar, uyushgan guruhlar va jinoiy uyushmalarning faoliyatiga chek qoʻyish, ommaviy axborot vositalarini jalb etgan holda aholi oʻrtasida keng miqyosda ogohlantirish – profilaktik ishlarni oʻtkazishga doir vakolatlari mustahkamlangan. Uning 8-moddasiga asosan davlat organlari, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda jamoat birlashmalari, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar, shuningdek, fuqarolar odam savdosiga qarshi kurash boʻyicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlariga koʻmaklashadi. Ushbu normalar profilaktika xizmatlarining ayollar oʻrtasidagi huquqbuzarlikga qarshi kurash va uning oldini olish faoliyatini tashkil etishni tartibga soluvchi normalar va ularni qoʻllash amaliyoti tahlilini belgilab beradi.

Oʻzbekiston Respublikasining «Voyaga etmaganlar oʻrtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi toʻgʻrisida»gi 2010-yil 29-sentyabr qonunining 10-moddasida voyaga etmaganlarni huquqbuzarliklar yoki boshqa gʻayriijtimoiy xatti – harakatlarni sodir etiga jalb qilayotgan yoxud voyaga etmaganlarga nisbatan boshqa gʻayrihuquqiy qilmishlar sodir etayotgan shaxslarni, shuningdek, voyaga etmaganlarni taʼminlash, tarbiyalash va ularga tarbiya berish boʻyicha oʻz majburiyatlarini bajarishdan boʻyin tovlayotgan yoki lozim darajada bajarmayotgan yoxud voyaga etmaganlarning xulq – atvoriga salbiy taʼsir koʻrsatayotgan yoki ular bilan shavqatsiz muomalada boʻlayotgan ota – onalarni yoki ota – ona oʻrnini bosuvchi shaxslarni aniqlash vazifasi belgilangan. Mazkur qonunga asosan, ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda boʻlgan voyaga etmaganlarga va oilalarga yordam koʻrsatadi, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki ixtisoslashtirilgan oʻquv tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan voyaga etmaganlarning



ijtimoiy – pedagogik rehabilitatsiya qilinishi va moslashuviga ko‘maklashadi, voyaga etmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar, jumladan, profilaktika xizmatlari bilan hamkorlik qiladi.

Uchinchi guruh huquqiy asoslar sifatida huquqbuzarlikning oldini olishga xizmat qiladigan qonunlarning ijrosini ta‘minlash, bu sohada faoliyat olib boruvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlar, xususan profilaktik xizmatlarining ayollar o‘rtasidagi huquqbuzarlikga qarshi kurash va uning oldini olish faoliyatini tashkil etishni tartibga soluvchi normalar va ularni qo‘llash amaliyoti tahlilini takomillashtirish maqsadida qabul qilingan normativ – huquqiy hujjatlarni misol qilib keltirish mumkin. Ushbu normativ huquqiy hujjatlar jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni, jamoat tartibi va xavfsizlikni ta‘minlash, huquqbuzarlik, uning sabablari va ularga imkon beruvchi omillarning oldini olishga xizmat qiladi.

To‘rtinchi guruhga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining profilaktika xizmatlarining ayollar o‘rtasidagi huquqbuzarlikga qarshi kurash va uning oldini olish faoliyatini tashkil etishni tartibga soluvchi normalar va ularni qo‘llash amaliyoti tahlilini belgilab beruvchi quyidagi qarorlarini keltirish mumkin:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi «Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta‘minlash konsepsiyasi to‘g‘risida» va 2001-yil 6-iyundagi «O‘zbekiston Respublikasi IIVda huquqbuzarlikka qarshi kurash bo‘yicha profilaktika xizmatlarining rolini kuchaytirish to‘g‘risida»gi qarorlarida huquqbuzarlikka qarshi kurash va huquqbuzarliklarning oldini olishda mavjud tajribalardan kelib chiqqan holda, mahalla fuqarolari yig‘inlari tarkibida, profilaktika inspektorlari bilan joylarda huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslar o‘rtasida profilaktik tadbirlarni amalga oshirish, yoshlar bandligi, kichik biznes, sport to‘garaklarini hamkorlikda tashkil etish zarurligi belgilangan. SHuningdek, huquqbuzarlik va huquqbuzarliklarning oldini olishda jamoatchilik bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish ichki ishlar organlari, jumladan, profilaktika xizmatlarining asosiy vazifasi etib belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2013-yil 7-oktyabr 274-sonli qarori bilan tasdiqlangan fuqarolar yig‘inining voyaga etmaganlar, yoshlar va sport masalalari bo‘yicha komissiyasi to‘g‘risidagi Namunaviy nizomga muvofiq o‘z faoliyatini yuritmoqda.

Beshinchi guruh huquqiy asoslar sifatida O‘zbekiston Respublikasi IIVning normativ – huquqiy hujjatlarini misol qilib keltirish mumkin. Maslan, 2002-yil 22-martdagi «Militsiya tayanch punktida ichki ishlar idoralari xodimlari va jamoat tuzilmalari vakillarining hamkorligi faoliyatini tashkillashtirish bo‘yicha» «Uslubiy qo‘llanma»ni tasdiqlash haqida»gi hamda 2014-yil 1-sentyabrdagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasini ta‘minlash, profilaktika inspektorlari va militsiya tayanch punktlari faoliyati samaradorligini oshirish to‘g‘risida»gi buyrug‘i bugungi kunda profilaktika xizmatlarining ayollar o‘rtasidagi huquqbuzarlikga qarshi kurash va uning oldini olishda ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari bilan, jamoat tuzilmalari bilan hamkorligining asosiy yo‘nalishlarini hamda amlga oshirilish tartibini belgilab beradi.

Xulosa o‘rnida ta‘kidlash joizki, yuqorida qayd etilgan qonunlar hamda qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar bevosita ichki ishlar organlarining ayollar o‘rtasidagi huquqbuzarlikka qarshi kurash va uning oldini olishda jamoat tuzilmalari bilan hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish bo‘yicha asosiy vazifalarni belgilab beradi, hamda ushbu sohadagi hamkorlikni samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abdurasulova Q.R., J.S.Muxtorov. Ayollar o‘rtasida huquqbuzarlikningnig sabab va sharoitlari hamda profilaktikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2016
2. Maxmudov R. Ichki ishlar organlari tomonidan huquqbuzarliklarni oldini olishda tarbiyaviy vositalar va ulardan foydalanish. Toshkent. 1997 yil.
3. Eshnazarov M. Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi huquqbuzarliklarning oldini olishda hamkorlikni takomillashtirish. O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. Axborotnoma 2012 Toshkent – № 2.



# “ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ”

(3-қисм)

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.12.2021

**Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)**  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000